

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek tilshunosligi kafedrası

Egamnazarova Umidaning

**5220100-o'zbek filologiyasi yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish
uchun "Forscha – arabcha ot yasovchi qo'shimchalarning badiiy matnda
qo'llanilishi" mavzusidagi (Alisher Navoiyning "Xamsa" asari asosida)**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Dehqonova L.

Taqrizchi: katta o'qituvchi Murodqulov O.

Guliston 2011

MUNDARIJA

Kirish.....	3-7
Adabiyotlar tahlili.....	7-13

I BOB .

Badiiy matnda uchraydigan arabcha ot yasovchi qo'shimchalarning qo'llanilishi

1.1. Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar.....	14-20
1.2.O'zbek tiliga kirgan arabcha ko'plik shakllarining qo'llanilishi.....	21-25

II BOB

Badiiy matnda forsha ot yasovchi qo'shimchalarning qo'llanilishi

2.1.Fors-tojik tillaridan o'zlastirilgan so'zlar.....	26-31
2.2.Morfemalar orasidagi sinonimik munosabat.....	32-52
Xulosa.....	53-58
Foydalanilgan adabiyotlar.....	59

**Guliston davlat universiteti filologiya fakulteti bitiruvchisi Egamnazarova
Umidaning “Forscha – arabcha ot yasovchi qo’shimchalarning badiiy
matnda qo’llanilishi” (Alisher Navoiyning “Xamsa” asari asosida)
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T a q r i z

Bitiruvchi Egamnazarova Umidaning ishi forscha – arabcha ot yasovchi qo’shimchalarning badiiy matnda qo’llanilishiga bag’ishlangan.

Alisher Navoiy asarlari tilini turli jihatlardan atroflicha va chuqur tahlil qilish tilshunoslikning dolzarb va muhim vazifalaridandir. Ana shunday masalalardan biri «Xamsa» romanida qo’llanilgan forscha-arabcha ot so’z yasovchi qo’shimchalarnilarni aniqlash masalasi deb o’ylaymiz. Zero, o’zbek tili badiiy uslubining rivojini, unda adabiy til, badiiy til hamda xalq tili lisoniy imkoniyatlarining tutgan o’rnini, o’zlashmalarning roman matnidagi lug’aviy ma’nolari, grammatik vositalari, uslubiy tovlanishlari qanchalik ishga solinishini hisobga olmasdan turib adibning badiiy mahoratini belgilash mumkin bo’lmaydi. Bitiruv ishining dolzarbligi ana shular bilan belgilanadi.

BMI kirish, 2 ta bob, xulosa, adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, hajmi 61 betni tashkil etadi.

Kirish qismida muallif ishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, ishni yangiligi va amaliy ahamiyatini tushunarli qilib bayon qilgan, adabiyotlar tahlili berilgandir. Unda fors-arab tilidan o’zlashgan yasovchi qo’shimchalar haqidagi olimlarning fikrlari o’rganilgan. Egamnazarova Umida o’z imkoniyati darajasida ilmiy adabiyotlardan foydalangan, shuningdek, olingan ma’lumotlar jamlanib tahlil qilingan. Egamnazarova Umida tilimizda mavjud bo’lgan fors-tojik va arab tillaridan kirib kelgan anchagina o’rin-joy, predmet oti yasaydigan affikslarni izohlagan, tilda aktiv qo’llanilishini misollar asosida tahlil qilgan.

Chiqarilgan xulosa va tavsiyalar ilmiy jihatdan yetarli dalillarga asoslangan. Egamnazarova o'z ishida qo'yilgan maqsad va vazifalarni to'liq bajargan.

Ishni yozishda ayrim orfografik xatolarlar uchraydi, bu ishning ilmiy ahamiyatini tushirmaydi.

Egamnazarova Umida o'z ishini yuksak saviyada bajarganligi, bitiruv malakaviy ishning amaldagi Nizom talablariga to'la javob berishini hisobga olib, DAKdan uni yuqori baholashlarini so'rayman.

9-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi: Yahyoyeva M

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tamonidan ko'p asrlar davomida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho madaniy va ma'naviy merosni tiklash va keng ravishda tadqiq qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim vazifa bo'lib qoldi. Bu muammoni hal etishning yo'llaridan biri, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, kishilar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hissini qaror toptirish va rivojlantirishdir. (Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. –137-b)

Milliy qadriyatlarimiz, madaniy meros deyilganda o'zbek badiiy adabiyoti asarlari ham tushuniladi. Shu boisdan milliy tariximiz, an'analарimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz o'z aksini topgan ko'pgina asarlarimiz mustaqilligimiz sharofati bilan o'zining haqqoniy talqiniga ega bo'lib, xalqimizning diqqat-e'tiboriga sazovar bo'lmoqda. Bu biz uchun mustaqillik bergan ne'matlardan biridir. Olimlarimiz xalqimiz sardorining «O'z tarixi va ajdodlarini siylagan xalqning kelajagi, albatta, porloq bo'ladi» degan gaplariga amal qilib, yosh avlodning ma'naviy dunyosini kengaytirish, ularning o'zligini chuqur anglash ushbu kunning eng hayotiy masalalaridan biri bo'lib kun tartibida turgan bir paytda Alisher Navoiy kabi shaxsiyati va asarlari milliy ma'naviyatining mo'tabar namunasi bo'lgan ulug' yozuvchining asarlarini har tamonlama tadqiq etmoq g'oyatda muhimdir. Bu borada qilingan va qilinadigan ishlar o'tmish tariximizni chuqur bilishga, uni e'zozlashga, u bilan faxrlanishga, uning qadriga etishga va uni ko'z qorachig'idek asrashga undaydi. Milliy tariximiz yozuvchilarimiz yaratgan asarlarida ham o'z ifodasini topgan va ular bilan chuqur tanishish, ushbu asarlarning boy lisoniy imkoniyatlarini tadqiq qilish nihoyatda muhimdir.

Ma'lumki, badiiy asarlarda, xususan, romanlarda turmush, umuman borliq, hayot keng qamrovda o'z badiiy, real ifodasini topdi. Shunga ko'ra badiiy

asarlarning til xususiyatlarini o'rganish, asar yozilgan davr tilini baholash, qahramonlar saviyasi, tili ularning qanday maqomga ega ekanliklarini belgilash va nihoyat, yozuvchining badiiy mahoratini ochib berish jihatdan ham juda muhimdir. Shunga qaramasdan, o'zbek tilshunosligida badiiy asarlarda, jumladan, romanlarda mavjud bo'lgan o'ziga xos alohida xususiyatlar, fors-arab tiliga xos so'zlarning badiiy asarda qo'llanish jihatlari maxsus tadqiq etilgan asarlar deyarli yo'q.

Alisher Navoiyning «Xamsa» romani adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ancha o'rganilgan ammo lingvistik tadqiqodlar ob'ekti sifatida kam o'rgangan. To'g'ri, maqola shaklidagi ishlar, boshqa masalalar tarkibida yo'l-yo'lakay aytilgan fikrlar yo'q emas, lekin monografik xarakterdagi ishlarga bizning ko'zimiz tushmadi. Shunga ko'ra, Alisher Navoiy asarlari tili turli jihatlardan atroflicha va chuqur tahlil qilish tilshunoslikning dolzarb va muhim vazifalaridandir. Ana shunday masalalardan biri «Xamsa» romanida qo'llanilgan forscha-arabcha ot so'z yasovchi qo'shimchalarnilarni aniqlash masalasi deb o'ylaymiz. Zero, o'zbek tili badiiy uslubining rivojini, unda adabiy til, badiiy til hamda xalq tili lisoniy imkoniyatlarining tutgan o'rnini, o'zlashmalarning roman matnidagi lug'aviy ma'nolari, grammatik vositalari, uslubiy tovlanishlari qanchalik ishga solinishini hisobga olmasdan turib adibning badiiy mahoratini belgilash mumkin bo'lmaydi. Bitiruv ishimizning dolzarbligi ana shular bilan belgilanadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Alisher Navoiyning «Xamsa»nida uchraydigan fors-arab tilidan o'zlashgan ot yasovchi qo'shimchalarga xos so'zlarni aniqlash, ulardagi o'ziga xoslikni tahlil qilish ishning asosiy maqsadidir. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- «Xamsa» romanida uchraydigan forscha-arabcha ot yasovchi qo'shimchali so'zlarni aniqlash, ularni alohida ajratib olish, ulardagi o'ziga xoslikni tahlil qilish;

- Alisher Navoiyning tilga bo'lgan munosabatini, yozuvchi asarlari tilini o'rganilish darajasini belgilash;
- Badiiy asar tilida forscha –arabcha ot yasovchi qo'shimchali so'zlarni qo'llashning ahamiyatini belgilash va tahlil qilish;
- Asardagi forscha –arabcha ot yasovchi qo'shimchali so'zlarni o'rganish va shu asosda yozuvchining badiiy mahoratini ko'rsatish.

Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar:

Alisher Navoiy ijodi, jumladan, “Xamsa”asari tilini o'rganilish darajasini belgilashga harakat qildik, uning o'zbek tiliga, umuman, tilga bo'lgan e'tibori, olimlarning bu haqidagi fikrlari umumiy tarzda tahlil etildi;

“Xamsa” romanida uchraydigan forscha –arabcha ot yasovchi qo'shimchali so'zlarning qo'llanilishi hodisasi o'rganilib, til jihatdan tahlil qilindi va uslubiy jihatdan o'rganildi;

Adibning o'zbek tili badiiy tasvir vositalaridan va qo'shimchalardan qanchalik mahorat bilan foydalanganligi belgilandi.

BMIning metodologik asosi va tahlil usullari. Tadqiqodning metodologik asosini moddiy olamdagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorligi, ular haqidagi tushunchalarning inson ongida badiiy in'ikosi va uning tildagi ob'ektiv ifodasiga oid dialektika ta'limoti tashkil qiladi. Shuningdek, mustaqil O'zbekiston davlatining madaniyati va ma'naviyatiga, badiiy va tarixiy merosga aloqador qarorlari ushbu tadqiqod uchun ilmiy metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Ishda keltirilgan misollarni tahlil qilishda yetakchi o'zbek tilshunos va adabiyotshunoslarning badiiy adabiyot tili, badiiy uslub, jumladan, Alisher Navoiyning asarlari tili haqidagi nazariy fikrlariga tayanildi.

Ishning tadqiqod ob'ekti. Alisher Navoiyning “Xamsa” romanidagi forscha –arabcha ot yasovchi qo'shimchali so'zlarning qo'llanishi ushbu tadqiqot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqodning amaliy ahamiyati. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarining til xususiyatlarini o'rganish asosida ushbu ishda chiqarilgan xulosalar o'zbek

adabiy tili uslubiyati tizimida badiiy uslubning shakllanishini belgilash, gap tarkibining rivojlanishida forsha-arabcha ot yasovchi qo'shimchali so'zlardan foydalanishning nazariy himmatga ega ekanligi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, ikki bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Umumxalq tilining taraqqiy etishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan o'zaro aloqalarining kengayishi bilan bog'liq holda davom etadi. Ma'lum tilda boshqa chet til usullarining kirib, o'zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hisoblanadi. Mamlakatlar va xalqlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy va ma'daniy munosabatlarning rivojlanishi, ayniqsa bir-biriga qo'shni xalqlarning yaqin madaniy aloqalari natijasida yangi g'oyalar hamda fikrlar, yangi tushunchalar qabul qilinadi. Bu jarayon esa yangi fikr va tushunchalarni ifodalovchi yangi so'zlar qabul qilishni taqazo etadi. Bu tarixiy jarayon ma'lum xalq yoki tilning o'ziga xos xususiyatlarini cheklab qo'ymaydi, aksincha, ularning yana ham rivojlanishiga, til lug'at tarkibining boyib borishi va umuman tilda ayrim o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi.

Eng qadimgi davrlardan boshlab O'rta Osiyoda yashab kelgan turkiy va boshqa tillarda so'zlovchi jamoalarning madaniy aloqalari, bir-biriga yaqinlashuvlari va aralashuvlari jarayoni davom etib kelgan. Bu tarixiy jarayon eramizning birinchi asrlarda boshlanganligi ko'rsatiladi, eslatib o'tiladi.¹(M.Vahobov) Qadimgi turkiy va sug'diy –eroniy qabilalar o'rtasida iqtisodiy va madaniy munosabatlarning rivojlanishi ularning tillariga ham ta'sir qildi. Ayniqsa, g'arbda eftalilar davlatining tugatilishi va turk xoqonligining vujudga kelishi davrida bu tarixiy jarayon yana ham kuchaydi. Natijada bir tomondan, bu urug' va qabilalarning bir qismi o'zaro bir-biri bilan qo'shilib ketadi. Ikkinchi tomondan esa, turkiy va sug'diy-eroniy tillarning o'zaro bir-biriga samarali ta'siri ancha kengaydi. O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi, keyinchalik somoniylar davlatining tashkil topishi va ayniqsa Mavorounnahrda hokimiyatning Qoraxoniylar tomonidan bosib olinishi bu yerda yashagan turkiy va sug'diy-forsiy xalqlarning bir-biri bilan aralashib ketishi jarayonini kuchaytirdi hamda turkiylashgan ayrim sug'diylarning turkiy qabilalar tarkibiga singib ketishiga olib keldi. Shu asosda O'zbek elatining tashkil topishi va shakllanishi jarayonida turklashgan ayrim sug'diylarning ham ishtirok etganligini ko'rish mumkin. (M.Vahobov). Bu davrlarda o'zining tuzilishi asosida –

grammatik qurilishi va asosiy lug'at fondini saqlagan holda, qadimgi sug'diy tili negizida shakllanib rivojlangan davri "fors-tojik" tili bilan turkiy tillarning o'zaro bir-biriga ta'siri ham kuchaydi. Bunung natijasida bu tillar ancha boyidi, rivojlandi. Bu qadimiy tarixiy jarayonning kuchli ta'sirini ayniqsa O'rta Osiyoning eng qadimgi aholisi bo'lgan o'zbek va fors-tojik xalqlarining hayoti ham, ularning adabiyoti va tillarida ochiq ko'rish mumkin.

Ma'lumki, o'zbeklar va tojiklar qadimgi davrlardan boshlab bir umumiy hududda yashab kelganlar. Bir xil, yoki bir-biriga juda yaqin, turmush sharoiti, uzoq yillar davomida iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlik va munosabatlar bu ikki xalqni bir-biriga juda yaqinlashtirdi, ularning qardoshlik aloqalarini mustahkamladi. Bu tarixiy-madaniy hamkorlik va aloqalar o'zbek va tojik xalqlarining urf-odatlarida, adabiyoti va san'atlarida, o'zbek va tojik tillarining o'zaro bir-biriga ta'sirida o'zining yorqin ifodasini topdi. O'z tuzilish tarkibini saqlagan o'zbek tilining lug'at tarkibiga ko'plab fors-tojik so'zlari qabul qilindi. Ijtimoiy - siyosiy madaniy hayotning turli sohalariga tegishli bo'lgan bu so'zlar o'zbek tili lug'atida ma'lum bir qatlamni tashkil qiladi, tilda yangi sinonim so'zlarning paydo bo'lishi va ko'payishiga sabab bo'ladi. Shoh, andisha, farmon bo'ston, sargardon, hafta, sahro, haridor, gul, gulob, noma, arg'umon, afsona, bazm, baxt, orom, beparvo, dastor, jom, kamtarin, lashkar, may, ohang, ohista, ruhsor, kabi.

Dastlabki paytlarda fors-tojik tilidan qabul qilingan lug'aviy birliklar mavhum va aniq tushunchalarni bildirgan so'zlardan iborat bo'lsa, asta-sekin belgi xususiyat, holat va miqdor tushunchalarini ifodalagan so'zlar ham o'zlashtiriladi: dono, dilbar, dilkash, benavo, gado, gulandom, devona, shirin, jigarpora, maboda, mardona, namoyon, nozuk kabi.

Turkiy -o'zbek va fors-tojik tillari xalqlarining bir-biri bilan qo'shilib aralashib ketishi, bu xalqaro tillarning o'zaro ta'siri natijasida forsiy va turkiy izohlar, aralash forsiy-turkiy so'z birikmalari keng qo'llangan: mahbubi dil, ayyomi vasl,

mohi hovariy, shahri vasl, latofat mulki, junun vodiysi, ishq ahli, hajr ilgi, muhabbat siri, jondin batang kabi.

Fors -tojik tilidan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida bo'lgan bir qator yasovchi vositalar (-zor,-don,-iston,-ham,no-,be-) keyinchalik o'zbek tilida ham yangi so'zlar yasashga xizmat qiluvchi affiks bo'lib qoladi: olmazor, tuzdon, kuldon, *hamqishloq, noo'rin, beomon* kabi yasovchi affikslar bilan birga mustaqil so'z negizlaridan hosil bo'lgan yasovchi elemenlar –affiksoidlar ham qabul qilinadi (-shunos, -xo'r, -do'z, -kash, -xon, -xona, -noma, -parvar kabi), tilshunos tuproqshunos, oshxo'r, qonxo'r, etikdo'z, ishxona, chizmakash singari.

Fors-tojik tilining ta'siri natijasida o'zbek tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishida ham ayrim o'zgarishlar yuzaga keldi. Bularning muhimlaridan biri sifatida bevosita fors-tojik tilining ta'siri ostida yetakchi shahar shevalarida turkiy til fonologik tizimiga xos bo'lmagan tovushlarning paydo bo'lishini ko'rsatish mumkin. Chetdan kirib qolgan bu qo'shimcha omil ta'sirida til oldi unlilarining konvergenziyasi yuzaga keldi. Buning natijasida Toshkent tipidagi shahar shevalarining vokalizmi fors-tojik tili unlilariga yaqinlashib bordi, Samarqand-Buxoro shevalarining unlilari tarkibi esa ilgaridan fors-tojik tili vokalizmiga yaqin edi. Bu hodisa o'zbek tilida singarmonizmning qisqarishiga, shahar shevalarida esa asta-sekin kuchsizlanib yo'qola borishiga olib keldi.

(V.V Reshetov. Uzbekiskiy yazik. Tashkent, 1959, 37-38- betlar.)

Ko'p asrlar davomida bir hududda yashash bir xil turmush tarzi va madaniy hayot bu xalqlarning tillarida yaratilgan hikmatli so'zlar, maqol va iboralarda ham o'z aksini topdi. Bir kunga ho'kiz o'lmas, ikki kunga egasi bermas - Ba yek ro'z barzagov namemurad, ba du ro'z sohebash namedihad; odamning qo'li gul- Dasti odam gul; kabi hikmatli so'z va iboralar mazmuni bilan ham bir- biriga o'xshaydi. Bu kabi hikmatli so'z va iboralar bu tillarda bir vaqtda yoki oldinma ketin yuzaga kelgan.

O'zbek tili ham, o'z navbatida, fors-tojik tilining rivojlanishiga, uning leksikasiga va ayniqsa grammatikasiga ma'lum darajada ta'sir qilgan o'zbek tilidan

juda ko'p so'zlar iboralar lug'aviy birliklardan tashqari, bir qator so'z yasovchi va shakl yasovchi affikslar (-chi, -cha , dosh, siz, lik kabi) ham fors-tojik tiliga ham qabul qilingan.Tarixiy jihatdan o'zaro doimiy aloqada bo'lib turishi sababli fors-tojik tilida ayniqsa uning ko'pgina yetakchi shevalari morfologiyasi va sintaksisida paydo bo'lib, keng ishlatilayotgan yangi agglyutinatip tipdagi tahliliy shakllar jumladan, omada budam, rafta istodaam, rafta istoda budam tipidagi ravishdoshli murakkab fe'l shakllari bevosita o'zbek tilining ta'siri asosida paydo bo'lgan grammatik hodisalar hisoblanadi.(B.A.Zveginsev,Ocherki po obshemu yazikoznaniyu.Izd,MGU,1963,239-240-betlar).

Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha tojiklar elat bo'lib shakllangan davrlarda (IX-X asrlarda)dariy(fors-tojik)adabiy tili tashkil topdi.Somoniylar hukmronligi davrida davlat tili va adabiy til sifatida uning mavqeyi va ahamiyati ko'tarildi.Hatto turkiy qabilalarda bo'lgan G'aznaviylar va Saljuqiylar ham davlat tili va adabiy til sifatida dariy tilini qabul qildilar.Shu asosda X-XII asrlarda,qisman mo'g'ullar davri va undan keyin ham dariy tili juda katta hududda adabiy til bo'lib qoldi.(N.M.Mallayev,O'zbek adabiyoti tarixi.Toshkent,1963, 113-bet.)

O'zbek va fors-tojik tillarining o'zaro bir-biriga ta'siri bizning davrimizgacha davom etdi,yana ham mustahkamlanib bordi.Buning natijasida ikki tilchilik hodisasi yuzaga keldi,shiru-shakar usulida yozilgan asarlar paydo bo'ldi.

Turkiy tillarga, jumladan,o'zbek tiliga ko'proq uning lug'at tarkibi boyishiga arab tili ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.Mahalliy xalqlarning tillariga arab tillariga arab tilining ta'siri bevosita VIII asr boshlarida arablarning O'rta Osiyoni bosib olishi,arab halifaligi hukmronligining boshlanishi va bu yerdagi xalqlarning musulmonlikni,islom dinini qabul qilishi bilan bog'langan.Arab halifaligining O'rta Osiyoni istilo qilishi bu yerdagi xalqlarning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta putur yetkazdi,ularning ko'p asrlik madaniy boyliklari yemirilib tashlandi,yozuvchilari yo'q qilib yuborildi.O'rta Osiyo xalqlari islom dini bilan birga arab yozuvini ham qabul qildilar.Arab tili esa mamlakatning ijtimoiy-

madaniy hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Arab tili faqat islom dinini targ'ib qilish, islom falsafasi va aqidalariga doir g'oyalar, fikr va tushunchalarni ifodalash va diniy ibodat majburiyatlarini bajarish sohasidagina emas, balki davlat idora ishlarida, mamlakatning ilmiy -madaniy hayotida ham hukmron til sifatida qo'llanar edi. Arab tilining fan va adabiyotda keng ishlatilishiga uning islom dini bilan birga va uning tili sifatida juda katta hududga tarqalishi va umumiy tilga aylanishi ham sabab bo'ldi. Bu tarixiy hodisalar mahalliy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrlarda diniy aqidalarni targ'ib qiluvchi shuningdek turli fanlarga oid ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilar edi. Jumladan, O'rta Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan yirik olimlar- Al-Xorazmiy, Abu nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Aburayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariylar o'z asarlarini ona tilida emas, balki arab tilida yozishga majbur bo'ldilar.

Yuqorida ko'rsatilgan tarixiy jarayon natijasida mahalliy xalqlarning tillariga arab tllaridan ko'plab so'z va iboralar qabul qilindi. Arab tilidan kirib kelgan yangi o'zlashtirmalar dastlabki paytlarda ko'proq islom bilan, diniy-axloqiy aqidalar bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlardan iborat bo'lgan: hikmat, ummat, ro'zimahshar, hadis, oyat, qur'on, haq, iymon, payg'ambar, musulmon, arofat kabi. Bu kabi so'zlar bir tomondan, Qur'on va hadislar singari bevosita islom diniga doir kitoblarni tarjimalari, tafsirlari orqali mahalliy tillarga, jumladan o'zbek tiliga qabul qilingan. Ikkinchi tomondan esa, diniy mavzularda (Yassaviy "Hikmat"lari, "Qissasi Rabg'uziy" kabilari) yaratilishi ham, o'zbek tilida arab tiliga xos so'z va iboralarining ko'payishiga olib keldi. Keyinroq esa adabiyot fan va madaniyatning rivojlanishi bilan bog'liq ravishda ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid mavhum va aniq tushunchalarni, belgi xususiyat kabilarni ifodalovchi ko'plab arabcha so'z va iboralar o'zbek tiliga qabul qilinadi: adolat, vatan, ijozat, adabiyot, amaliyot, maslahat, javob, ijodiy, madaniyat, imlo, imon, vazn, ijobiy, luqma, zuhra, kamolot kabilari.

Shuni eslatish kerakki, arab tilining O'rta Osiyo xalqlari tillariga, shu jumladan o'zbek tiliga bo'lgan ta'siri asosan lug'at tarkibi bilan chegaralanadi. O'zbek tili leksikasiga arab tilidan kirib kelgan so'zlarning ko'pchiligini predmet ma'nosini ayniqsa mavhum predmetlikni va belgi ma'nosini bildiruvchi iboralar tashkil qiladi. O'zbek tilining fonetik tuzilishi va grammatik qurilishiga esa arab tili sezilarli ta'sir ko'rsata olmadi.

O'rta asrlarda VIII-XV asrlar davomida Yaqin va O'rta sharq mamlakatlarida ikki til – din va ilm fan sohasida arab tilini qo'llash hamda badiiy ijodda fors-tojik tilida asarlar yaratish an'anaga aylanib qolgan edi. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Ibn sino, Mahmud Qoshg'ariy kabilar o'z asrlarini ona tilida emas, balki anashu an'anaga ko'ra arab tilida yozdilar. Badiiy adabiyotda esa fors-tojik adabiy tili an'alarining ta'siri ancha kuchli edi. Uning ta'siri ostida hatto o'zbek xalqi orasida yetishib chiqqan shoir yozuvchilar ham ona tiliga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'ldilar. Ular turk-o'zbek tilini dag'al til, unda nozik his-tuyg'ularni nafis tarzda ifodalab bo'lmaydi degan g'ayri ilmiy, noto'g'ri fikrlarni ilgari surar edilar. Mana shunday sharoitda Alisher Navoiy ona tilini himoya qilish uchun Kurash bayroqdori, ona tilining boyligi va sofliigi uchun tolmas kurashchi sifatida maydonga chiqdi, ona tilining qimmatini va kamsituvchilarga qarshi kurashdi. O'z ona tili – turk o'zbek tilining boyligini qudrat va salohiyatini unung cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini, katta kuch va g'ayrat bilan himoya qildi, uni she'riyat osmoniga ko'tardi. Shu bilan birga u fors-tojik tili va adabiyotining taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shdi.

Navoiy o'zining ona tili uchun olib borgan kurashini uch yo'nalishda, yani buyuk shoir va yozuvchi sifatida, yirik davlat arbobi hamda ulug' mutafakkir, tilshunos olim sifatida davom ettirdi.

U o'zining ajoyib nazm durdonalarini yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan "Xazoyin – ul maoniy", "Xamsa" kabi asrlarini ona tilida yozish orqali turk o'zbek tilining qudratini, uning boy tasviriy vosita va imkoniyatlarga ega ekanligini, to'liq ma'noda badiiy adabiyot tili ekanligini amaliy tarzda isbotlab

berdi. Navoiy o'z adabiy- asrlarini yaratish jarayonida juda muhim va murakkab ikki vazifani -o'zbek adabiy tilini yuksak darajada rivojlantirish va takomillashtirish, uning hozirgi o'zbek adabiyotiga xos adabiy uslubiy me'yorlarini ishlab chiqish hamda tom ma'nodagi o'zbek adabiyotini yaratish, undan xalq ommasini bahramand qilish vazifalarini amalga oshirdi.

Turk-o'zbek adabiy tilini ijtimoiy- siyosiy jihatdan himoya qilish Navoiyning ona tili uchun, uning davlat tili bo'lishi uchun oilb borgan kurashining ikkinchi yo'nalishini tashkil qiladi.

O'zbek adabiy tilining lug'at tartibi -asl turkiy so'zlar bilan birga, arab, fors-tojik tillaridan qabul qilingan juda ko'p yangi o'zlashtirma so'zlar bilan boyiydi, bu so'zlar juda ko'p qo'llanadi.

Navoiy o'zining butun adabiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati davomida ona tilida katta adabiyot, fors-tojik tili bilan musobaqa qila oladigan darajada yuksak badiiy asarlar yaratish, turk-o'zbek tilini rivojlantirish uning boy imkoniyatlarini ochib berish uchun tinmay harakat qildi. U “ yuqori” bayon uslubi talablaridan kelib chiqqan holda arab va fors-tojik tillari unsurlaridan ayniqsa lug'at boyligidan shuningdek grammatik shakllari, badiiy tasvir vositalardan keng foydalandi va o'zbek adabiy tilini boyitdi.

Yuqorida eslatib o'tilganidek Navoiy o'z asarlarida jonli xalq tiliga xos shakllar, so'z va iboralarni ko'p qo'llaydi.

Ato o'g'lig'a yig'labon: hoy-hoy!

Qiziga anor tortibon: voy-voy!

Shu bilan birga shoir arabiy iboralar, forsha-tojikcha iboralar va so'z va birikmalardan ham samarali foydalandi.

I BOB

Badiiy matnda uchraydigan arabcha ot yasovchi qo'shimchalarning qo'llanilishi

1.1. A r a b t i l i d a n o'z l a s h t i r i l g a n s o' z l a r.

Bunday so'zlarning o'zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ancha faollashgan. Arab tilidan so'z o'zlashtirilishiga olib kelgan omillar ichida quyidagilar muhim rol o'ynagan: a) arablar istilosi; b) islom dinining keng tarqalishi; v) arab yozuvining qo'llana boshlanganligi; g) madrasalarda arab tilining o'qitilishi; d) turkiy-arab ikki tilliligidaning (bilingvizmning) tarkib topganligi; e) olimu fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar.

Hozirgi o'zbek tili leksikasida arab tilidan o'zlashtirilgan leksemalarning ko'pchiligi ot, sifat va ravish turkumlariga mansubdir: otlar – *adabiyot, axborot, avlod, ayol, maktab, maorif, ma'naviyat, hosil, hukumat, odam, haqiqat, intizom, inshoot* va boshqalar; sifatlar – *adabiy, ajnabiy, aziz, azim, ayyor, aqliy, badiiy* va boshqalar; ravishlar – *avval, ba'zan, bil'aks, ta'ziman* kabi. Bulardan tashqari, bog'lovchilar (*balki, ammo, lekin, va, vaholonki*), undovlar (*ajabo, barakalla, salom, xayr*), modal so'zlar (*albatta, ehtimol, avvalo*), yuklamalar (*faqat, xuddi*), ko'makchilar (*binoan*) ham o'zlashtirilgan.

Arab tilidan so'z o'zlashtirilishi o'tmishda faol bo'lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to'xtagan. Ayrim arabcha so'zlar hatto eskirib, tarixiy so'zlar yoki arxaizmlar qatoriga o'tib qolgan: *adad* (sanoq so'z), *ajam* ("arablardan boshqa xalqlar"), *akbar* ("katta", "buyuk", "ulkan"), *alam* (bayroq), *bayoz* ("she'riy to'plam"), *sallox* ("qassob"), *saloh* ("to'g'rilik", "vijdonlilik"), *sanad* ("hujjat") va boshqalar.

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning fonetik, semantik va morfemik tarkiblarida quyidagi xususiyatlar borligi ko'zga tashlanadi: a) so'z tarkibida ikki unlining yonma-yon qo'llanish hollari uchraydi: *matbaa, mutolaa, saodat, oila, doir, rais* kabi; b) *ra'no, da'vo, ta'na, e'lon, me'mor, ta'lim, e'tibor, mo'tabar*

kabi so'zlarda ayni tovushidan oldingi unli kuchli va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi; v) *jur'at, sur'at, bid'at, qal'a, san'at* so'zlarida bo'linlar ayirib talaffuz qilinadi; g) semantik jihatdan: ko'proq diniy, hissiy, axloqiy, ilmiy, ta'limiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi: *avliyo, aza, azon, vahiy, avrat, axloq, axloqiy, xulq, fikr, tafakkur* kabi; ilmga, adabiyot va san'atga oid tushuncha nomlari ham keng tarqalgan: *amal* (matematikada hisob turi), *rukn, vazn* (adabiyotshunoslik atamallari), *riyoziyot* ("matematika"), *adabiyot, san'at, tabiiyot* (fan va soha nomlari) kabi; d) so'zlarning lug'aviy va grammatik shakllari flektiv xarakterda bo'lib, o'zbek tilida morfemalarga ajratilmaydi: *ilm, muallim, olim, ulamo; fikr, tafakkur, mutafakkir* kabi.

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar orasida tarixan yasama bo'lgan *adabiy, badiiy, g'olibiyat, voqeiy, voqean, oilaviy* kabi leksemalar ham bor. Bunday leksemalar bilan birga o'zlashtirilgan "-iy", "-viy", "-an" affikslari o'zbek tilida so'z yasovchi affikslar darajasiga ko'tarilgan, natijada o'zbek tilida so'z yasash imkoniyatlari kengaygan. Hozirgi o'zbek tilida shu affikslar vositasida yasalgan juda ko'p yangi leksemalar mavjud: *texnikaviy, fizikaviy, tuban, turkiy* kabi. Bulardan tashqari, arabcha leksik o'zlashmalar o'zbekcha yoki tojikcha so'zlar bilan ma'no munosabatiga kirishib, o'zbek tilining sinonimik qatorlarini boyitgan: *o'rinbosar* (o'zb.)- *muovin* (a.), *guvoh* (f-t.)- *shohid* (a.), *aniq* (a) – *ravshan* (so'g'd.) kabi

Navoiy fors-tojik tiliga va adabiyotiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ladi, uning boy tajribalaridan o'rganadi, undagi chiroyli tasviriy vositalar, ixcham, ravon, badiiy kuchli iboralar va birikmalardan o'z asarlaridan foydalanadi, ularni o'zbek adabiy tiliga olib kiradi. Navoiyning bir qancha asarlari forscha-tojikcha yoki arabcha-tojikcha shakldagi atamalar bilan yuritiladi: "Xoloti Sayid Hasan Ardasher", "Tarixi mulki Ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo" kabi. Uning asarlarida qo'llangan juda ko'p forscha-tojikcha lug'aviy birliklar, chiroyli ibora va birikmalar turlicha uslubiy vazifalarni bajaradi.

Xirmani ruxsoriga solmish mayn gulnori o`t,
O`ylakim, gul xirmaniga otashin ruxsori o`t.

(G`aroyib)

Navoiy asarlarida, ayniqsa she`riyatda qo`llangan aniqlovchi birikmalarning aksariyati forsha-tojikcha izofalardan iborat: nasimi subh, shom hijron, buti shirin kalom, xoli mushkin, vodiya hajr, vodoyi vasl, soqiyi gulandom, asiri g`am, shahzodai nomdor kabi.

Oldimda tabibi chorasozim ham yoq,

Yonimda rafiqa dilnavozim yo`q.

(G`aroyib).

Navoiy asarlarida naxlqomat,abrmonand, balandmaqom, devonakirdor, parishonro`zg`or, bahrtimsol, daryonasab, jahonpahlavon, bolqushoy, daroznafas singari qo`shma so`z va iboralarni, shu so`zlar asosida hosil qilingan mardavkanlig`,dostonoraliq,gavharnisorlik,dalilovarlik, girihkushoyliq, barqgomlik, diramposhliq, jahon so`zluq, mubarizafkanlik kabi yangi so`zlar murakkab yasamalarni ko`plab uchratish mumkin.

“Alisher Navoiy asarlari izohli lug`ati” ning oltinchi jildida Navoiy asarlarida qo`llangan barcha so`zlarning indeksi beriladi. Bu indekisdagi jami 15052 so`z va ibora keltiriladi (210 ta arabiy birikma va iboralar bunga kirmaydi). Bu so`zlarning nisbiy qo`llanish darajasini tahlil qilish natijalari quyidagilarni ko`rsatdi: sof turkcha so`zlar 2405 ta , 16,02%.

Boshqa tillardan (asosan arab va fors-tojik tillaridan) qabul qilingan o`zlashtirma so`zlar 11305 ta 74,85%.

O`zbek tili affikslari orqali o`zlashtirma qatlamdan yasalgan yangi yasamalar 1352 ta, 9,15% .

Shuni eslatish kerakki Navoiyning ona tilida katta adabiyot yaratishdagi buyuk maqsadini amalda ijro etish, shubhasiz, yozuvchidan “oliy uslub” da asarlar yozish zarurligini talab qilar edi. Bu esa ona tilining boy hazinasidan tashqari arab va fors-tojik tillarining boyliklardan go`zal tasviriy ifoda

vositalaridan samarali foydalanishni, chiroyli istiora, kinoya va o'xshatishlarni turlisha uslubiy maqsadlarda qo'llanish lozimligini ham taqazo etar edi. Arab va fors-tojik tillarini ularning nozik qirralarini mukammal va chuqur bilgan Navoiy bu talablarni yaxshi tushunar edi. Demak, Navoiy asarlarida arab va fors-tojik tillari unsurlarining ko'p va xo'p qo'llanishi avvalo adabiy- badiiy uslub bilan "katta adabiyot uchun munosibroq hisoblangan" "yuqori uslub" da badiiy jihatdan yuksak asarlar yaratish talablari bilan, shuningdek uning bu tillarni juda chuqur va yaxshi bilganligi kabilar bilan izohlanadi.

Navoiy o'zbek tili bilan fors-tojik tilini qiyosiy o'rganish, o'zbek tilining lug'at boyligini ko'rsatishda holisona fikrlar bayon qiladi: birining ahamiyatini oshirib, ikkinchisini kamsitib qaramaydi. Balki har ikkala tilga barobar munosabatda bo'ladi, til hodisalarini, aniq faktlarni chuqur tahlil qilish asosida o'zbek tilining ham fors-tojik tili singari boy va go'zalligini, ixcham va go'zal grammatik shakllarga ega ekanligini, unda chiroyli badiiy asarlar yaratish imkoniyatlari keng ekanligini namoyish qiladi. Bu haqida Navoiy shunday deydi: "Bu so'zlardan xasn mundoq bilmasun va mundayin bu nav gumon qilmasunki, mening ta'bim turk alfoziga muloyim tushgan uchun ta'rifida mubolag'a ishor qilurmen va forsiy iboratg'a munosabatim ozroq uchun inkor va nafiya isror ko'rguzumenkim, forsiy alfoz istifosin va ul iborat istiqosin kishi mendin ko'prak qilmaydur erkin va salo va fasodin mendin yaxshiroq bilmaydur erkin...". Darhaqiqat, fors-tojik tili Navoiy uchun ikkichi ona tiliday bo'lgan. U yoshligida ijodiy faoliyatini shu tilda she'rlar mashq qilish, yozish bilan boshlagan, umrining oxirigacha "Foniy" tahallusi bilan g'azallar, ruboiy va qasidalar bitgan, maxsus devon tuzgan. Uning fors-tojik tilidagi asarlarini ustoz Jomiy ham yuqori baholagan.

Ikki tilni qiyoslab o'rganish jarayonida bu tillarga doir barcha masalalarni to'la hal qilib berish vazifasini qo'ymaydi. U "Muhokamat-ul lug'atayin" da bu masalaning faqat bir tomoniga asosan fors-tojik tilida muqobili bo'lmagan o'zbekcha so'zlarni tahlil qilish bilan chegaralanadi, shular asosida ma'lum

xulosalarga keladi. Aksicha, fors-tojik tilidan o'zbek tiliga qabul qilingan yoki umuman o'zbek va fors-tojik tillariga arab tilidan kirib qolgan so'zlar haqida hech narsa demaydi. Holbuki o'zbek tilini himoya qilish, uni har xil ta'nakamsitishlardan qutqazish uchun har ikkala tilning o'zaro bir-biriga ta'sirini ko'rsatish va shu orqali o'zbek tilining lug'at boyligi jixatidan badiiy asarlar yaratishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini aniqlash lozim edi. To'g'ri, Navoiy arab va fors-tojik tillaridan o'zbek tiliga kirib qolgan so'zlar haqida, o'zbek va fors-tojik tillarining o'zaro aloqasi haqida bunday deb ma'lumot beradi: "Har miqdorkim bu birining u biri bila omezish va guftuguzori bor, ul birning ham bu bir bila hamonchi takallum va guftori bor". Ammo qiyosiy tadqiqot o'zbek tilining fors-tojik tiliga ta'sirini va aksincha fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'sirini kengroq, aniqroq yoritishni taqozo etadi.

Demak, "Muhokamat-ul lug'atayin" o'zbek adabiy tilining takomoliga erishuvi uchun Navoiy olib borgan kurashning, u amalga oshirgan butun adabiy, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatining yakuni, umumlashmasi sifatida maydonga keldi.

O'zbek adabiy tili leksik grammatik hodisalarning silliqlashuvi, normativ holatiga kelish jarayonini so'z yasalishi sohasida ham ko'rish mumkin. Barcha so'z turkumlarida so'z yasalishi hozirgi o'zbek adabiy tili bilan umumiylikka, uyg'unlikka egadir. Jumladan, xilma xil ma'no anglatgan ot yasashda - liq'lik affiksi, kasb- hunar, birgalik, predmet, qurol vosita otlari yasashda -dosh, -duqduk, -k, -g' (turli muqobillari bilan), -ma, hamda **-zor, -boz, -gar'-kor, ham-** singari ko'pgina fors-tojik affikslari yangi so'z yasashda faol qo'llangan.

O'zlashgan qatlam – o'zbek tili leksikasining boshqa tillardan o'zlashtirilgan leksemalardan iborat qismi. Masalan: *maktab*, *oila* (ar.), *daraxt*, *gul* (f-t.), *ravshan* (sug'd.), va boshqalar. Bu qismda arab, tojik-fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

O'zlashgan leksemalar hozirgi adabiy o'zbek tili lug'atida salmoqli o'rin tutadi.

O'zbek tili lug'atidagi arabcha leksemalarning oz qismigina bevosita arab tilining o'zidan olingan. Bunday o'zlashtirish asosan O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi, maktab-madrasalarda arab tilining din tili sifatida targ'ib qilinishi bilan, eng muhimi – sharq olamida fan tili deb arab tilining qabul qilinganligi kabi omillar bilan bog'liq. Demak, arab tilidan bevosita o'zlashmalar asosan fanga va dinga doir leksemalarga to'g'ri keladi.

Ko'pchilik arabcha leksemalarning o'zbek tiliga o'zlashuvida fors tilining o'rni katta. Asli bunday leksemalar oldin fors tiliga o'zlashgan, keyingina o'zbek tiliga o'zlashtirilgan. Bunday yo'l bilan o'zlashgan leksemalar asosan kundalik turmushda uchraydigan narsa va hodisalarning nomlariga to'g'ri keladi.

Arabcha so'zlar o'zbek tiliga ko'pincha aynan olinmay, ma'lum darajada o'zlashtirib, o'zbeklashtirib, ko'p hollarda o'zbek tilining tovushlariga moslashtirib olingan.

Ma'lumki, arab tilida uchta qisqa ovoz tovush (*a, u, i*) va shularning cho'ziq shakli mavjud. Bulardan o'zbek tili ovoz tovushlariga qisqa shakllari to'g'ri keladi, shunga ko'ra o'zbek tiliga olingan arabcha leksemalar tarkibidagi qisqa tovushlar jiddiy o'zgarishga duchor bo'lmagan. Hozirgi adabiy o'zbek tili ovoz tovushlari qatorida cho'ziq tovushlar yo'q, shunga ko'ra arab tilidan olingan leksemalar tarkibidagi cho'ziq ovoz tovushlar odatda qisqa tovushlarga almashtiriladi. Arabcha leksemalarni o'zlashtirishda ular tarkibidagi cho'ziq **a**: tovushi asosan o'zbekcha **â** tovushiga almashtirilganini alohida ta'kidlash lozim, chunki bu yerda tovushni faqat miqdoriy (cho'ziqlik) jihatidagina emas, balki sifatiy (lablanish) jihatidan ham sezilarli o'zbeklashtirish voqe bo'ladi.

Arab tilining tovushlar qatoridagi bir qancha tovushlar o'zbek tilining tovushlar qatorida yo'q, shu sababli bunday arabcha tovushlar o'zbek tilidagi eng yaqin muqobiliga almashtirilgan: ikkita **t** tovushi **ṭ** tovushiga, uchta **s** tovushi **ṣ** tovushiga, to'rtta **z** tovushi **ẓ** tovushiga almashtirilgan, faqat uchta **x** tovushidan **ḫ** tovushi harf bilan ta'minlanib, hoyi hutti va hoyi havvaz tovushlari bir tovushga (**h**) birlashtirilgan va b.

Tilshunoslar ravish turkumining yasallish sistemasiga ega emasligini *-an*, *-ona* qo'shimchalarining arabcha va tojikcha so'zlar tarkibida uchrashini, *-larcha*, kabi so'zlarning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydilar.

-an affiksi arab tilida tushum kelishigi formasi bo'lib, o'sha tildan kirgan so'zlarda ravish yasovchilik vazifasini o'taydi. Bu affiks bilan harakatning bajarilish holatini bildirgan ravishlar yasalgan: qisman, haqiqatan, fikran, tamoman, javoban, majburan kabi.

Arab tilshunosligida olmoshlar alohida so'z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida "yashirin ma'noli so'zlar" (*zamirlar*) sifatida alohida guruhlariga ajratilgai. Chunonchi, *kitob*, *daftar*, *Abbos* - aniq ma'noli otlar bo'lsa, *men*, *sen*, *kim* - yashirin ma'noli otlar (zamid otlar) dir.

Bundan tashqari tillarda ichki fleksiya, suppletivizm kabi vositalar ham mavjud.

Ichki fleksiya turli drammatik ma'nolarni ifodalash uchun so'z tarkibidagi tovushlarning o'zgarishidir. Bu vosita hind – yevropa va semit tillarida keng qo'llaniladi. Masalan: ingliz tilida: *see-saw-seen*; nemis tilida *fahren – fuhr*.

O'zbek tilida juda kam qo'llaniladigan suppletivizmlar, chunonchi, (*men -biz*, *sen -siz*; eski o'zbek tilida *u- alar*, *anga*, *anda*, *ani*, *aning*), arabcha so'zlar orqali o'zlashgan ichki fleksiya usullari mavjud:

Kitob - *kutubxona*

xabar - *axbor*

fikr - *afkor*

ilm - *ulum*

taraf - *atrof* va boshqalar.

1.2.O'zbek tiliga kirgan arabcha ko'plik shakllarining qo'llanilishi

Navoiy ijodida arab tili muhim o'rin tutadi.Shuni eslatish kerakki, Navoiy asarlarining ko'pchiligi arabcha nom bilan, so'z va iboralar bilan ataladi :

“ Hazoyin- ul maoniy”, “Navodir–ush shabob”,“ Hayrat – ul abror”,“Lison-ut tayr”, “Majolis –un nafa'is”, “Arbayin”, “Mezon- ul avzon”, “Mahbub- ul qulub” kabi.

Navoiy asarlarida juda ko'p so'zlar lug'aviy birliklardan tashqari ko'plab arabiy iboralar, birikmalar va alohida gaplar keng ishlatilgan: Xalloq-ul maoniy-ma'nolar yaratuvchisi, Shayx-ul Mashoyix- Shayxlar shayxi, Ayn – ul hayot-hayot chashmasi, Bahr ul najot – qutilish dengizi, alas- sabiya- bab- barovar kabi. Navoiy bunday arabiy ibora va birikmalardan turlicha uslubiy maqsadlarda samarali foydalanadi .

Navoiy asarlarida arab tiliga xos qator grammatik shakllar ham uchraydi. Jumladan, otlarda ko'plikning quyidagi adabiy shakllari qo'llanadi:

1. –**ayin** affiksi orqali yasalgan juft ko'plik shakli: fiddorayin – ikki dunyoda, qurratu aynin li – ikkimizning ko'zimiz nuri, lug`atayn “Muhokamat – ul lug`atayn” – ikki lug`at muhokamasi, zulfayn – ikki soch o`rimi kabi
2. – **in** affiksi bilan ifodalangan ko'plik shakli: salotin, muslimin, mutaxayyirin.
3. – **ot** affiksi orqali yasalgan ko'plik shakli: harakot, kalimot, maqolot, xayolot, zulumat, muqaddimot, barakot kabi. Bu shakllar ko'plik affiksini (-lar) ham olib keladi: harakotlar, maqolotlar. Harakatlari tuzuksiz so`zlaridek va kalimotlari hashv va mahalsiz nozlaridek.
4. arab tiliga xos so`zlarining ichki fileksiyasi vositasida va qo`shimcha harflar orttirish orqali yasalgan “siniq ko'plik” shakllari shuaro, vuzaro, fuqaro (faqirlar), hukamo, ashor, as'hob (do`stlar), madoriz masojid, atibbo, qulub, af`ol kabi.

Ma'lumki, o'zbek tili leksik boyligini shu tilning o'ziga xos leksik qatlami bilan birga o'zlashgan qatlam ham tashkil qiladi. Xalqlar o'rtasida turli sohalardagi o'zaro aloqalar u yoki bu xalqning tillariga ta'sir ko'rsatgan. Bir tilga xos bo'lgan fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi tilga o'tib, o'zlashib ketgan. O'zbek xalqi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lganligi, boshqa tillardan o'zbek tiliga ham ko'plab so'zlarning o'zlashuviga olib keldi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tili lug'at sostavida o'zlashgan leksik qatlamni vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Buni arab tili misolida ko'rib chiqamiz.

Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida arab tiliga xos bo'lgan ko'plik qolipdagi so'zlari keng iste'moldadir. Masalan: Olim- ulamo, rab-arbob, sabab-asbob, asl-usl, asar- asor, faqir-fuqaro, amal-a'mol, xulq-axloq, had-hudud va h.k. Misol: Ulamoning fasodi ta'm bila va fuqaroning fasodi riyo birla. (Nasoyim ul-muhabbat 85 bet).

Yana : Bu toifaning a'mol va a'fol va muomilot va riyozotdin va ba'zini zikr qilmoq. (Nasoyim ul- muhabbat 85 bet).

Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'plik qolipidagi arabiy so'zlar ko'plik ma'nosini anglatgani holda keng qo'llanadi.

Malak- maloika, she'r – ash'or, hayvon- hayvonot, sohib –sahoba, ruh-arvoh va h.k. Nabotot va hayvonot kalomining samoi va maoniysiga vuquf topmoq. (Nasoyim ul- muhabbat 85 bet)

Yana: ... Mashoyix diydorlaridin bahramand va suhbatlaridan anjumand ermish. (Nasoyim ul- muhabbat 85 bet)

Yana: Ajdodlari arab bo'lgan shayx Muborak ham ham Bianadagi xalq harakatida ishtirok etgan. (Humoyun va Akbar 275 bet).

Yana: Chinorning dastlabki ellik – oltmish yildagi o'sish bir avlod umriga qiyos etgulikdir. (Humoyun va Akbar 286 bet).

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zlashgan arabiy so'zlarning birlik va ko'plik shakli yonma- yon kelib, juft so'zlarni hosil qiladi va ular ma'no kuchaytirish

uchun hizmat qiladi. Masalan: Davr- davron, sir-asror, haq-huquq, shart-sharoit, hol- ahvol, rasm- rusum va h.k.

2. O'zbek adabiy tiliga o'zlashgan arabiy so'zlarning ko'plik shakli birlikdagi shakliga nisbatan kengroq iste'molda. Masalan:

Birlik.	Ko'plik.
Siloh	aslaha
Jad	ajdod
Valad	avlod
Vali	avliyo
Nabi	anbiyo
Yavm	ayyom
Lavn	alvon
Shay	ashyo
Uzv	a'zo

Bu so'zlarning ko'plik shakli o'zbek tilida mustaqil ma'no beruvchi birlikdagi so'z sifatida keng qo'llanadi.

” Avliyolikning boshlanishi payg'ambarlikning oxiridir”.(Nasoyim ul-muhabbat 309 bet)

Yana: Chun anbiyoning ashrafi erdi, qavm- aqvomning ashaddiy... (Nasoyim ul- muhabbat 183 bet ”.

3. Arab tilida bir so'z ikki yoki undan ortiq ko'plik shakliga ega. O'zbek adabiy tiliga ulardan bir shakligina o'zlashgan bo'lib, u birlikdagi ma'nosiga ma'nodosh bo'lgan so'zni ifodalaydi.

Arab tilida ayn so'zi o'zbek tiliga ” ko'z” deb tarjima qilinadi. Uning ko'plik shakllari (uyun), (a'yun), (ayon). Bulardan (uyun), (a'yun) ”ko'zlar” deb tarjima qilinadi, (a'yon) ko'plik shakli esa o'zbek tiliga o'zlashgan bo'lib, u ”ko'zga ko'ringan shaxslar” degan ma'nono anglatadi. M: A'yonlar Akbarga ta'zim qildilar.(Humoyun va Akbar 298 bet)

4. Arab tilida ko'plikdan ko'plik yasash usuli ham mavjud bo'lib bunday "o'ta" ko'plik qolipidagi so'zlar ham o'zbek tilida qo'llanadi.

(dor)- "uy", "turar joy" so'zining ko'pligi (dur) bo'lib, undan (diyor) ko'plik shakli yasaladi.

(dor) – "uy", "turar joy" so'zining ko'pligi (dur) bo'lib, undan (diyor)- ko'plik shakli yasaladi. O'zbek adabiy tilida "diyor" so'zi keng qo'llanilib, u endi faqat, "uy", "turar joy" degan ma'nolarni anglatib qolmay, balki, keng ma'nodagi "yashash joyi", "yurt", "mamlakat" degan ma'nolarni ham bildiradi.

Arab tilida ko'plikdagi otlarga (ot) qo'shimchasi qo'shilib ham "o'ta" ko'plik yasaladi. Masalan: (ajibatun)- so'zidan (ajoibu)- ko'plik- (ajoibot)- (o'ta ko'plik yasalgan). "Ajoib" va "ajoibot" so'zlari o'zbek tilida keng qo'llanadi.

5. Arabiy so'zlarning o'zlashgan ko'plik shakllari hozirgi o'zbek adabiy tilida "g'alati mashhur" iborasi bilan ham qo'llanadi. Bu holbuki ichki ma'no jihatidan bog'liqlik bo'lsa-da, so'zlar o'zining asosiy bosh ma'nosidan uzoqroq ma'noni anglatib keladi.

Masalan, "insho" so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi:

a) Muassasa, qurilish

b) Ijodiy asar, sochma asar, yozuv xat.

O'zbek adabiy tilida insho so'zi faqat "sochma asar", "asar", "yozuv xat" ma'nosini ifodalab keladi. Bu so'zning arab tilidagi ko'plik shakli "inshoot" bo'lib, bu so'z o'zbek adabiy tilida faqat "qurilish", "bino", "imorat" kabi ma'nolardagina qo'llanadi.

Yoki, arabiy xotira so'zi, g'oya, tushuncha, esda saqlash kabi ma'nolarni anglatga, uning ko'plik shakli xavotir o'zbek adabiy tilida o'zining bosh ma'nosidan uzoqroq bo'lgan "taxlika", "qo'rquv" ma'nolarida ishlatiladi.

Shuningdek, munshaat "qurilish", "muassasa" ma'nolarini bildiruvchi arabiy so'zning ko'pligi munshaot hozirgi o'zbek tilida "mayda nasriy asarlar", "xatlari to'plami" ma'nosida qo'llanadi.

5. Arab tilidagi ko'plik qo'shimchasi (ot) fe'lning funktsional formalarni hisoblangan harakat nomi (masdar), va sifatdoshlarga qo'shilib ko'plik shaklini hosil qiladi. Bunday so'zlarning ham birlik, ham ko'plik shakllari o'zbek tilida o'zlashgan bo'lib, keng iste'moldadir. Lekin bu so'zlarning har ikkala shakli ham mustaqil ma'no anglatuvchi so'z bo'lib, boshqa-boshqa grammatik vazifalarni bajaradi.

a) Masalan: “ harakat nomi”-masdarga + (ot) qo'shilgan.

Isloh-islohot (4-bob masdari)

Hisob-hisobot (3-bob masdari)

b) sifatdoshlarga - ot qo'shimchasi qo'shilib ko'plik shakllari yasaladi.

Masalan: Mavjud-mavjudot, mahsul-mahsulot.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arabiy so'zlarning ko'plik shakllari ham eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llangan va ular o'rniga qarab alohida-alohida grammatik funksiyalarni bajarib keladi.

II BOB

Badiiy matnda forscha ot yasovchi qo`shimchalarning qo`llanilishi

2.1. Fors-tojik tillaridan o`zlashtirilgan so`zlar.

Bunday so`zlarning o`zbek tiliga o`zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor:

- a) o`zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo`shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma`naviy muhitda yashab kelayotganligi;
- b) o`zbek-tojik va tojik-o`zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;
- v) tojik va fors tillarida ijod qilish an`analarining uzoq yillar davom etganligi;
- g) Qo`qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo`lganligi;
- d) adabiyot, san`at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va boshqalar.

Hozirgi o`zbek tilida fors - tojik tillaridan o`zlashtirilgan so`zlar orasida otlar (*sartarosh, avra, avra-astar, bazm, barg, baxt, daraxt, daraxtzor, hunar, hunarmand*), sifatlar (*badbo`y, badjahl, baland, baravar, barvasta, bardam, barzangi, barra, baxtiyor, bachkana, ozoda, toza*), ravishlar (*bajonidil, banogoh, do`stona, tez, bazo`r, astoydil, chunon*), bog`lovchilar (*chunki, yoki, agar, garchi, ham*), undovlar (*balli, dod*), yuklamalar (*xo`sh, xuddi*), modal so`zlar (*chunonchi, binobarin*) uchraydi.

Fors-tojik tillaridan o`zlashtirilgan so`zlarda: a) so`z oxirida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi ancha keng tarqalgan: *g`isht, go`sht, daraxt, karaxt, do`st, past, kaft, farzand* kabi. (Umumturkiy so`zlarda bu holat kam uchraydi); b) kuchsiz lablangan “o” unlisi so`zning barcha bo`g`inlarida qo`llanadi: *ohang, nobud, bahor, obodon, peshona* kabi.

Tojik-fors tillaridan o`zbek tiliga bir qator prefiks va suffikslar ham o`zlashgan: prefikslar –“be-”, “ba-”, “no-”, “ham-”, “bar-“, “kam-”, “xush-“; suffikslar “-kor”, “-zor”, “-xo`r”, “-parvar”, “-kash”, “-bop”, “-boz”, “-do`z”, “-namo”, “-paz”, “-furush” va boshqalar. Ular dastlab tojik-fors so`zlari tarkibida

qo'llangan, keyinchalik o'zbek tilining so'z yasovchi affikslari qatoridan o'rin olib, yangi so'zlarning yasashida ishtirok etgan, shu yo'l bilan o'zbek tili leksikasini yanada boyitgan. Masalan: *badavlat*, *beayov*, *bebosh*, *beboshlik*, *nosoz*, *noto'g'ri*, *hamyotoq*, *hamkurs*, *hamyurt*, *barkamol*, *kamsuv*, *kamsuvlik*, *kamsuqum*, *kamsuqumlik*, *xushbichim*, *xushyoqmas*, *o'rikzor*, *olmazor*, *to'qayzor*, *bug'doyzor*, *bug'doykor*, *nafaqaxo'r*, *tekinxo'r*, *adolatparvar*, *chizmakash*, *somsapaz*, *yubkabop*, *kostyumbop*, *gruppaboz*, *buyruqboz*, *maxsido'z*, *telbanamo*, *ipakfurush* kabi. Bulardan tashqari, tojik tilidan o'zlashgan *xona*, *noma* so'zlari o'zbek tilida affiksoid vazifasida qo'llanib, *yilnoma*, *oynoma*, *ishxona*, *bosmaxona* kabi so'zlarning yasashida ishtirok etgan.

Tojik tilidan o'zlashtirilgan so'zlarga o'zbek tilining so'z yasovchi qo'shimchalarini qo'shib leksema yasash hollari ham anchagina bor (bu haqda "O'z qatlam" bahsiga qarang).

Tojik tilidan so'z o'zlashtirilishi o'zbek tilining lug'at tizimida yangi sinonimik qatorlarni ham yuzaga keltirgan: *qirov*(o'zb.) – *shabnam*(toj.), *yaproq*(o'zb.) – *barg*(toj.), *oltin*(umumturkiy) – *tilla*(toj.), *buloq*(o'zb.) – *chashma*(toj.) kabi. Bunday holni antonimlar tizimida ham ko'ramiz: *do'zax*(f-t.) – *jannat*(ar.), *yirik*(o'zb.) – *mayda*(f-t.)

Boshqa tildan olingan leksemalar tarkibida kirib kelib, o'zbek tili manbaida ham leksema yasash vazifasini bajaradigan ayrim old qo'shimchalar – prefikslar mavjud (lot. *praefixum* < *prae* - 'oldida' *fixus* 'biriktirilgan'). Masalan, hozirgi o'zbek tiliga fors-tojik tilidan olingan leksemalar orasida *ba-*, *be-*, *no-*, *ser-* prefikslari bilan yasalgan leksemalar anchagina. Bulardan *be-*, *no-*, *ser-* prefikslari bir qancha o'zbekcha leksemalarga ham qo'shilib keladi, demak, o'zbek tilida leksema yasash vazifasini bajaradi: *notanish-*, *notinch-*, *noto'g'ri-*, *noo'rin-*, *noqulay-*; *bebosh-*, *betinim-*, *bechiqim-*; *serajin-*, *serildiz-*, *sertuk-*, *serunum-*, *serqatnov-* kabi; *ba-* prefiksida esa o'zbekcha leksemalarga qo'shilib yangi leksema yasash xususiyati deyarli yo'q.

Leksemani yasama leksema deyish uchun uning tarkibida yasalish asosi bo'lib kelgan leksema ham, yasovchi affiks ham hozirgi o'zbek tilida aniq ajralib turishi, yasalish asosi mustaqil leksema mavqeiga ega bo'lishi, boshqa yasama leksemalarga ham asos sifatida xizmat qilishi, affiks ham shunday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Masalan, *ishchi-*, *ishchan-*, *nota-nish-*, *serildiz-*, *bechiqim-* kabi leksemalar tarkibida yasalish asosi bo'lib kelgan leksemaga va yasovchi affiksga (suffiksga, prefiksga) aniq ajralib turadi; shunday leksemalarga qiyosan *beandisha*, *bearmon*, *serfarzand*, *sergap*, *serhosil*, *noumid*, *noqobil-* kabi yasalish asosi va yasovchi affiksi o'zbekcha bo'lmagan leksemalar ham ma'noli qismlarga ajratiladi, yasama leksema deyiladi, demak, bunday leksemalarda ham leksema yasalish tahlili amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ham hosila berib turgan qoliplar *unumli so'z yasash* qoliplari deyiladi. Unumli so'z yasash qoliplari hosila berish darajasiga qarab o'z o'rnida ikkiga bo'linadi: *mahsuldor unumli so'z yasash qoliplari* va *kammahsul unumli so'z yasash qoliplari*.

-gar, *-kash*, *-mon* vositali qoliplar unumli kammahsul qoliplarga misoldir. *-chi*, *-li*, *-la* vositali qoliplar mahsuldor unumli so'z yasash qoliplaridir. So'z yasovchi vositalar orqali har xil grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Masalan, *-kash* yasovchisi hosilasi sifat ham, ot ham bo'ladi (*mehnatkash* - ot, *dilkash* - sifat). Demak, so'z yasovchi vositalar nafaqat yangi so'z hosil qiladi, balki yangidan-yangi grammatik ma'nolarni ham vujudga keltiradi. Bu mustaqil so'zlarda lug'aviy ma'noning grammatik ma'no bilan dialektik aloqasini, ularning o'zaro yaxlitlikda mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida leksema yasash vazifasini asli forscha fe'l asosi (ko'pincha hozirgi zamon asosi) ham bajaradi. Ot, sifat, son leksemaga fe'l asosini qo'shib leksema hosil qilish fors-tojik tilida leksema tuzish (tuzma leksema) deyiladi: *bog'*- *dor*- *bog'dor*- (*dor*- - *doshtan* - 'ega bo'l-' fe'lining hozirgi zamon asosi), *dur*- 'uzoq, *bin*- *durbin*- (*bin*- - *didan* - 'ko'r-' fe'lining hozirgi zamon asosi),

choryak- - 'to'rtidan bir' *kor-* (*koridan* - 'ek-' fe'lining hozirgi zamon asosi) =*choryakkor-* > *chorakkor-* > *chorakor-* kabi.

Bunday forscha fe'l asoslari o'zbek tiliga bir qancha forscha leksemalar tarkibida kirib kelgan; ulardan ayrimlari keyinchalik o'zbekcha leksemalarga ham qo'shilgan. Shunday xususiyat *doshtan* fe'lining *dor-* hozirgi zamon asosiga xos: *yarador-*, *dongdor-*, *bo'ydor-*, *ilmoqdor-* kabi. Lekin *dor-* o'zbek tilida fe'l asosi deb tushunilmaydi, balki leksema yasovchi deb tushuniladi. Asli fe'l asosi ekanini e'tiborga olib affiks emas, affiksoid deb baholash to'g'riroq. Tojik tilida tuzma leksemalarga teng deb qaraladigan bunday birliklar o'zbek tilida yasama leksema deb baholanadi.

O'zak morfemalar affiksial morfemalarga aylanishi mumkin. Masalan, *ishxona*, *choyxona*, *bosmaxona*, *yotoqxona*, *duxtirxona* so'zlaridagi "xona" elementi lug'aviy ma'nosida emas, o'rin-joy yasovchi affiksial morfema vazifasida kelmoqda.

Tilimizdagi *-noma*, *-xo'r*, *-goh*, *-bon* kabi elementlar ham "xona" kabi vazifa bajarib keladi.

Xona-, *noma-*, *goh-* kabi forscha leksemalar, o'zbek tilida mustaqil ishlatilishdan tashqari, *ishxona-*, *oshxona-*, *taklifnoma-*, *ma'lumotnoma-*, *sayohatnoma-*, *sayrgoh-*, *oromgoh-* kabi leksemalarning tarkibida yasovchi qism sifatida qatnashadi; bir qancha leksemalarga qo'shiluvchi qism bo'lib kelgani sababli mustaqil leksemalik holatidan affiksoidlik holatiga o'tgan. Bular qatnashuvi bilan hosil qilingan leksemalar fors-tojik tilida tuzma leksema deb qaraladi, lekin o'zbek tilida yasama leksemalarga tenglashtiriladi:

Xullas, yasama leksemalarda yasalish asosi bo'lib leksema xizmat qiladi, leksema yasovchi vazifasini affiks (asosan suffiks, qisman prefiks), ba'zan affiksoid bajaradi, hosila esa leksemaga teng bo'ladi: *ish + chi = ishchi-*, *be + ish = beish-*, *ish + -xona = ishxona* kabi.

Hozirgi o'zbek tili lug'at boyligida, ko'pchilik turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan qismdan tashqari, o'zbek tilining o'z mustaqil taraqqiyoti

natijasida paydo bo'lgan qism ham mavjud. Buni, bir tomondan, o'zbek tilining o'zi doirasidagi yangi-yangi yasallishlarda ko'rsak, ikkinchi tomondan, leksemalarning leksik ma'no taraqqiyoti natijalarida ko'ramiz. Bulardan tashqari, boshqa tildan olingan leksemaga o'zbekcha affiksni qo'shib leksema yasash ham avj olgan. Masalan, *jangchi-*, *xizmatchi-*, *traktorch-* kabilarda leksema yasash asosi – boshqa til leksemasi, yasovchilar esa – o'zbek tiliniki.

Buning aksi, ya'ni o'zbekcha leksemaga boshqa tilga xos morfemani qo'shib leksema hosil qilish ham uchraydi. Masalan, *bebosh-* (*bevosh-*), *be-ish-*, *bilimdon-*, *tug'ruqxona-* kabilar shu yo'l bilan yasalgan.

Fors tilidan o'zlashtirishlar ham tarixan salmoqli bo'lgan. Fors tilidan o'zlashtirilgan leksemalarda jiddiy tovush o'zgarishlari sodir bo'lmagan, chunki o'zbek tili bilan fors tilining tovushlar qatori orasidagi farqlar u qadar katta emas: *andisha* , *baland* , *gap* , *daromad* , *jon* , *zar* , *mayda* , *nam* , *ozoda* va b.

Hozirgi adabiy o'zbek tili lug'atida boshqa sharq tillaridan o'zlashtirilgan leksemalar ko'p emas

O'zbek tili lug'atining sofliqi uchun kurashamiz deb bir til lug'atidan olingan leksema o'rniga boshqa til lug'atidan olingan yoki shunday birlik asosida yasalgan leksemani tavsiya etish o'zbek tili lug'atini soflashtirmasligi aniq: *institut-* (lotincha) – *oliygoh-* (arabcha + fors-tojikcha), *fakultet-* (lotincha) – *kulliyot-* (arabcha) kabi almashtirishlar lug'atimizning sofliqini mutlaqo ta'minlamaydi. O'zlashtirma leksema o'zbekcha leksema bilan almashtirilsagina, lug'atimiz sofliqiga xizmat qiladi: *sovet-* (ruscha) – *kengash-* (o'zbekcha) misolidagi kabi. Lekin bunday almashtirishlar juda oz bo'ldi.

Leksemaning (asosning) oldiga qo'shib keladigan affiksga prefiks deyiladi (lot. *praefixum* < *prae* - 'oldindagi', *fixus* - 'biriktirilgan'). O'zbek tili morfemalari tizimiga prefiks xos emas; lekin fors-tojik tilidan olingan leksemalar tarkibida kirib kelib, keyinchalik o'zbekcha leksemalarga ham qo'shib ishlatila boshlagan ayrim prefikslar mavjud: *be-*, (*beish-* kabi), *ser-* (*serunum-* kabi).

Affiksoid deb asli leksik birlik bo'lib, keyinchalik xuddi affiks kabi grammatik ma'no ifodalashga xizmat qilib, affiks kabi bir necha leksemalarga qo'shilib kelish xususiyatiga ega bo'lgan birlikka aytiladi (lot. *affixoid* - 'affiksga o'xshash'). Masalan, lug'atimizda *xona*- leksemasi mavjud (*katta xona*- kabi), shu bilan birga *-xona* affiksoidi ham mavjud (*ishxona*-, *oshxona*-, *choyxona*- kabi); *noma*- leksemasi ham (*vassalom*, *noma tamom* kabi), *-noma* affiksoidi ham (*taklifnoma*-, *aybnoma*-, *ruxsatnoma*- kabi) mavjud.

Tojik tilidan olingan leksemalar tarkibida tilimizga kirib kelib, keyinchalik o'zbekcha so'zlarga ham qo'shilish xususiyatiga ega bo'lgan, asli fors-tojikcha fe'lining asosiga (ko'pincha hozirgi zamon asosiga) teng birliklar ham o'zbek tili nuqtayi nazaridan affiksoidga tenglashtiriladi. Masalan, *aybdor*-, *bo'ydor*-, *yag'rindor*- kabi leksemalar tarkibida qatnashadigan *-dor* qismi asli fors-tojikcha *doshtan* ('ega bo'l-') fe'lining hozirgi zamon asosiga teng. Tojik tilshunosligida bunday qism qatnashadigan leksema tuzma leksema deyiladi, demak, bunday qism leksemaga tenglashtiriladi; o'zbek tilshunosligida esa affiksga o'xshatilib affiksoid deb qaraladi. Affiksoidlar leksema yasovchilik vazifasini bajaradi.

2.2. Morfemalar orasidagi sinonimik munosabat

Sinonim bo'lish asosan leksema yasovchi morfemalarga xos. Masalan, *-dosh* affiksi ma'lum leksemalarga 'birgalik' ma'nosi bilan qo'shilganda *ham-* affiksoidiga sinonim bo'ladi: *fikrdosh-* – *hamfikir-*, *suhbatdosh-* – *hamsuhbat-* kabi.

Atoqli ot turdosh ot yoki boshqa turkum leksemasi (leksemashakli) asosida yuzaga keladi, lekin atoqli otlarning ko'pida ularning asl ma'nosini tiklash, izohlash imkoniyati yo'qolgan bo'ladi, tarixiy-etimologik izlanishlar bilangina ularning asl ma'nosi izohlanadi. Masalan, *Chorsu-* atoqli otining qanday ma'noli qismlardan tuzilganini, shunga ko'ra asli qanday ma'no anglatganini hozirgi o'zbek tili asosida izohlab bo'lmaydi. Bu leksema asli fors-tojikcha *chahor-* ('to'rt') sanoq soni va *so'-* ('yo'nalish') turdosh ot leksemasidan tarkib topgan bo'lib, asli 'to'rt yo'nalish' ma'nosini anglatgan; keyinchalik ana shunday to'rt yo'l (ko'cha) boshlanadigan joyning atoqli otiga aylangan. Bu leksema hozirgi fors-tojik tilida turdosh ot sifatida mavjud; o'zbek tiliga *o'* tovushini *u* tovushiga almashtirib qabul qilingan (chunki *o'* tovushi o'zbek tilida ikkinchi va undan keyingi bo'g'inda kelmaydi): *chorso'-* > *chorsu-* (*chahor-* leksemasi *chor-* shakliga fors-tojik tilining o'zida o'tgan).

Atoqli otlarning bir qismida ular asosida yotgan leksik ma'noni bimalol izohlash mumkin. Masalan, *Olmos-* atoqli oti 'shaffof, yaltiroq qimmatbaho tabiiy tosh' ma'nosini anglatuvchi *olmos-* turdosh otining, *O'tkir-* atoqli oti 'yaxshi kesadigan' ma'nosini anglatuvchi sifatning, *Tursin-* atoqli oti *tur-* fe'lining 'yasha-' ma'nosi bilan hosil qilingan buyruq mayli III shaxs shakli- ning kishiga nom sifatida qo'yilishidan iborat.

Shakllarda pleonazm va tejamkorlik. Bir so'zda ma'nolari bir xil yoki yaqin bo'lgan qo'shimchalarning takrorlanishi (ikki, ba'zan uch) *affiksial pleonazm* deyiladi. Pleonazm affikslarda bir necha ko'rinishlarga ega. Masalan, bir affiksning aynan o'zi yokitashqi shakli har xil bo'lgan - ma'nodosh affikslar takrorlanadi:

Affiksial pleonazm har xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bir affiks o'zak bilan juda ham zichlashib, o'zakning tarkibiga singib ketadi, bunda o'zak o'z mustaqilligidan mahrum bo'ladi, natijada so'zga shu qo'shimchaning ma'nodoshlaridan biri qo'shilishi mumkin, qo'shimcha arxaiklashib, undan keyin tildagi iste'molda bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi. Takrorlanayotgan sinonim affikslarning barchasi «tirik» bo'lsa, ular ta'kid, kuchaytirish kabi uslubiy vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Boshqa tildan kirgan affikslar tushunarli va keng iste'molli bo'lmaganda ham uning tilimizdagi ma'nodoshi qo'llanadi (*yor+on+lar* kabi).

Pleonazm aksariyat hollarda til evolyutsiyasi bilan bog'liq hodisadir. Bunga o'zbek tilining akademgrammatikasida ayrim izohlar berilgan:

Og'zaki so'zlashuv nutqida ba'zan uchrab qoladigan *mashshoqchi*, *xodimcha* kabi so'zlarda «bajaruvchi» ma'nosi ikki marta ifodalangan: ichki fleksiya {arab tilida *mashshoq* –mashq qiluvchi shaxs, xodim - xizmat qiladigan shaxs) va *-cha* affiksi orqali.

Bir xil ma'nodagi ikki affiks qo'shma affiks maqomini oladi:

yog'ingarchilik, *namgarchilik* kabi

Otlarning derivatsiyasi.

Derivatsiya tilshunoslikning alohida bo'limidir. U so'z yasaliishi, uning diaxron va sinxron turlari, so'z yasash usullari kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

So'z yasaliishi sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayondir. Biroq uning lisoniy asoslari bor. Shu sababli so'z yasaliishi ham lison va nutqqa birday daxldor hodisadir.

So'z yasaliishi lingvistik termin sifatida ikki ma'nolidir:

- a) so'z yasash jarayoni atamasi;
- b) ushbu jarayonni o'rganuvchi soha.

So'z yasash deganda qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilish tushunilavermaydi. Masalan, so'z yangi ma'no kasb etishi natijasida yangi so'z

paydo bo'lishi mumkin. Deylik, *ishbilarmon* so'zi yangi ma'no kasb etdi. Biroq bu yerda yangi so'z yasalishi yo'q. Demak, so'z yasalishi, yasama va yangi ma'no kasb etgan so'zlarning leksemalashuvi hodisalarini farqlash lozim.

So'z yasalishi ham til taraqqiyoti natijasida tarixiylik va zamonaviylikka daxldor bo'ladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron so'z yasalishini farqlash lozim.

Akademik A.N.Kononovning «Grammatika sovr.uzb. literaturnogo yazo'ka» asarida ot yasalishining besh xil yo'li haqida gapiriladi.

O'zbek tilida otlar asosan affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan ko'plab yasaladi. quyida ot yasovchi affikslar – otlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi bilan qisqacha tanishamiz.

Otlar ikki xil - *affiksatsiya* va *kompozitsiya* usullari bilan yasaladi. Shunga muvofiq, ot yasashning affiksial va kompozitsion qoliplari mavjud. Bu qoliplar, ham o'z o'rnida unumli, unumsiz; mahsuldor va kammahsul turlarga bo'linadi.

Ot yasovchi qoliplarning aksariyati ko'p ma'noli qoliplardir. Quyida ularni ko'rib o'tamiz.

- shunos: tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunos.
- kor: g'allakor, paxtakor, sholikor.
- kash: aravakash, pillakash, suratkash.
- xon: kitobxon, jurnalxon, duoxon kabi.
- do'z: etikdo'z, mahsido'z kabi.
- gar: zargar, savdogar kabi.
- dosh: sinfdosh, sifatdosh, ohangdosh kabi bu affiks fe'ldan boshqa deyarli barcha so'z turkumlaridan ot yasaydi

Tilimizda fors-tojik tilidan kirib kelgan anchagina o'rin-joy, predmet oti yasaydigan affikslar ham borki, ular tilda aktiv qo'llaniladi:

- iston: O'zbekiston, Guliston, qabriston.
- zor: paxtazor, lolazor kabi.
- goh: saylgoh, oromgoh kabi.
- don: kuldon, siyohdon kabi.

- xona: ishxona, choyxona kabi.
- *shunos* affiksli (**ot + shunos qolipi asosdan anglashilgan sohani o'rganuvchi mutaxassis oti**) qolipi bir ma'noli bo'lib, u quyidagi hosilalarni beradi: *adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, o'lkashunos, musiqashunos* kabi.

Ko'z och, agar xud bor esang rahshunos,
Ish ravishin ayla aningdek qiyos,
(26-bob, 17 sahifa)

Kim ne kishikim, sanga mahkum erur,
Zulmunga bechorau mazlum erur.
(26-bob, 17 sahifa)

-*kor* affiksli ikkita qolip mavjud: a) **aniq ot + kor qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti** (*paxtakor, sholikor, g'allakor*) va b) **mavhum ot + kor qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs oti** yasaydi (*madadkor, xiyonatkor, gunohkor, tajovuzkor, tashabbuskor, ijodkor, xizmatkor*).

Charx to'quz durjiki zarkor erur,
Javfida yuz ming duri shahvor erur.
(36-bob, 31 sahifa)

Qaysi chibin kisvati zarkordur,
Yeridurur qaydaki murdordur.
(42-bob, 44 sahifa)

Ham bo'lubon tugmai zarkor anga,
Ham duru gavharg'a namudor anga.
(54-bob, 56 sahifa)

Har kishi xalq ichra gunahkorroq
Avfu inoyatqa sazovorroq .
(63-bob, 72 sahifa)

-*kash* affiksli qolip ham ikki manolidir: a) **ot +*kash*** qolipi a) **asosdan anglashilgan ish, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; b) asosdan anglashilgan ishni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxs oti; a) *zambilkash, kirakash, loykash, paxsakash***

Uch qadahi sof ila shah bo'lsa xush,
Loyi dog'i qolsa chekar durdkash.

(13 bob, 9 sahifa)

Hotami Toyig'a bir ozodavash

Dediki: „ Ey himmating ozodakash,

(31-bob, 25 sahifa)

b) *J'anjalkash , hazilkash.*

Sarvlari sarkashu zangorgun,
Har biri ko'k borgahig'a sutun.

Garchi bo'lur qalb diram ro'ykash,
Andin ayirmoq bo'lur o't birla g'ash.

(28-bob, 21 sahifa)

Yoki singar go'shaga muhtoj erur,
Bilki kamonkash anga halloj erur.

(36-bob, 32 sahifa)

Ulki chekib nag'mai dilkash hazor,
Kul ichida gulhaniyu xoru zor.

(42-bob, 42 sahifa)

O't kibi har nechaki sarkash bo'lub,
Xil'at anga hullai zarkash bo'lub.

(42-bob, 43 sahifa)

Yog'lig'i ul hullai zarrishtakash,
Kim anga jonlar chekibon rishtakash.

(52-bob, 54 sahifa)

Jilva qilib har guli navbovasi,
G'unchada dilkash ko'runib yovasi.

Guli navbova- yangi yetilgan toza gul.

(54-bob, 57 sahifa)

Tun yoshidur shuqqai anbarvashin,
Subh chiqorur alami zarkashin.

(62-bob, 69 sahifa)

Quyida boshqa affiksli qoliplarni misollari bilan sanab o'tamiz.

- **ot + xon qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetni doimiy mutolaa qiluvchi shaxs oti** (*gazetxon, kitobxon, jurnalxon, duoxon*)
- **ot + do'z qolipi asosdan anglashilgan narsa -predmetni tikuvchi shaxs otini bildiradi** (*etikdo'z, maxsido'z, mo'ynado'z, do'ppido'z*),
- **ot + gar qolipi asosdan anglashilgan narsa -predmet bilan bog'liq kasbni qiluvchi shaxs oti yasaydi** (*zargar, sovungar, savdogar*),

Garchi ko'ngul kulbasidek muxtasar,
Ikki jahon anda bo'lub jilvagar.

(12 bob, 7 sahifa)

Bo'lmasa g'oratgaru tannoz ham,
Chin bila husn o'lsa anga noz ham.

(14 bob, 10 sahifa)

Vahki manga jilvagar aylar chog'i,
Istabon ehson dog'i, tahsin dog'i.

(15 bob, 12 sahifa)

Jilvagar ul ko'zguga jon surati,
Dasta bo'lub anga arig' hay'ati.

Zahr ila yoshil bo'lubon paykari,
Bulbul aning boshida afsungari.

(18-bob, 15 sahifa)

Ko'rki, fusungar chu uzatti fusun,
Oldi yilon muhrasin aylab zabun.

(28-bob, 23 sahifa)

Jilvagar o'ldi chu quyosh royati,
Yer tubiga kirdi kecha zulmati.

(32-bob, 26 sahifa)

Qaysi tarafkim anga borib nazar,
Do'st jamoli bo'lubon jilvagar.

(38-bob, 36 sahifa)

Bir kun aning qasdig'a bir saydgar
Hodisa domin yoyib erdi magar.

(41-bob, 41 sahifa)

Balki qovurchoqchi kibi hiylagar,
Ko'rguzibon chodaridin ming suvar.

Qovurchoqchi - qo'g'irchoq o'yini ko'rsatuvchi

(48-bob, 48 sahifa)

Anda bo'lub jilvagari anjuman,
Har sori yuz lu'batlari siymin badan.

(48-bob, 48 sahifa)

Raxsh uza urg'on egari zarnigor,
Balki jibilgar anga gavhar nigor.

(52-bob, 54 sahifa)

G'ayb xayolotida yuz ming suvar,
Xotiri ko'zgusidadir jilvagar.

(60-bob, 65 sahifa)

- **ot + soz** qolipi **asosdan anglashilgan narsa - predmetni yaratuvchi, tuzatuvchi shaxs oti hosil qiladi** (*soatsoz, stanoksoz, asbobsoz*)

Goh visol ichra bo'lub ayshsoz,
Goh firoq o'tig'a aylab gudoz,

(17-bob, 14 sahifa)

Gar yel agar suv bo'lubon nag'masoz,
Sone ila har biriga o'zga roz.

(18-bob, 16 sahifa)

Bazmda soqiylar o'lub jilvasoz,
Ahli g'ino har sori doston navoz.

(26-bob, 18 sahifa)

Azraq uzakim bo'lubon baxyasoz,
Anjumi nahsi falaki naqshboz.

(28-bob, 19 sahifa)

Zohir etib shayx qoshida niyoz,
Foqalarig'a bo'lubon chorasoz,

(28-bob, 21 sahifa)

Boshing uza axtari davlat tiroz
Farq uza ,, fe “ nuqtasidek jilvasoz

Boshining ustida davlat yulduzining porlashi xuddi „farq“ (bosh tepasi)dagi
,, f “ harfi nuqtasiday jilvalanuvchidir.

(30-bob, 22 sahifa)

Vahmni qo'y, hamdamu hamrozim o'l
Ayshu tarab vaqti navosozim o'l.

(41-bob, 40 sahifa)

Bo'lmoq agar ko'p esa ham bazlsoz,
Bergali or aylamamak bo'lsa oz.

(46-bob, 46 sahifa)

Charx urubon rev ila nayrangsoz,
O'ylaki ko'k xirqa bila tosboz.

(48-bob, 47 sahifa)

- **ot + paz** qolipi **asosdan anglashilgan taomni tayyorlovchi shaxs oti yasaydi**
(*oshpaz, somsapaz, mantitaz, kabobpaz*).

- **ot + boz qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan ko'p shug'ullanuvchi, unga berilgan shaxs otini yasaydi** (*majlisboz, arizaboz, maishatboz, safsataboz, va'daboz, guruhboz, kaphtarboz, bedanaboz*).

Azraq uzakim bo'lubon baxyasoz,

Anjumi nahsi falaki naqshboz.

(28-bob, 19 sahifa)

Charx urubon rev ila nayrangsoz,

O'ylaki ko'k xirqa bila tosboz. (48-bob, 47 sahifa)

Ko'k xirqa -ko'k to'n ; tosboz- tos payola shaklidagi mis idish bo'lib, nayrangboz o'yinchilar to'sni to'ntarib qo'yib, tagiga soqqacha bekitib o'yin fokus ko'rsatadilar; bu yera osmonni to'ntarilgan to'sga o'xshatib, charx (falak) ni to'sboz (nayrangboz) deyiladi.

Nargisiga g'amzau noz o'rgatib,

G'amzasini shu'badaboz o'rgatib.

(48-bob, 48 sahifa)

- **ot + xo'r qolipi asosdan anglashilgan yegulik, ichimlikni doimiy iste'mol qiluvchi shaxs oti hosil qiladi** (*norinxo'r, mayxo'r, araqxo'r, nafaqaxo'r, choyxo'r*).
- **ot + parast qolipi asosdan anglashilgan narsaga e'tiqod qiluvchi shaxs oti yasaydi** (*butparast, mayparast, shaxsiyatparast, maishatparast*),
- **ot+tarosh qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi ot yasaydi.**

Subha dema, butki yo'nib buttarosh,

Dona yasab, harne qolib reza tosh.

(28-bob, 19 sahifa)

- **ot + go'y qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat, hodisani doim bajarib turadigan shaxs otini yasaydi** (*maslahatgo'y, duogo'y, xushomadgo'y, nasihat -go'y*).

- **ot + dor qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo'lgan shaxs oti**

yasaydi (*bog'dor, quldor, do'kondor*),

Soqiy, ayoq tut, karam izhor qil,

Bazlni Hotamg'a namudor qil.

(31-bob, 25 sahifa "Hayratul-abror")

Xalq ishiga gar bu namudor erur,

Bir kishi topmoq ishi dushvor erur.

Bas kishiga umr xushi yor emish,

Umr degan yori vafodor emish.

Yorki, bor anda vafo yor bil,

Umr degan yori vafodor bil.

(36-bob, 32 sahifa)

Ne chrkkay ko'kka boshin tojdori,

Yo'q ersa bir dur andin yodgori.

(12-bob, 77 sahifa "Farhod va Shirin")

- ot + bon qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetga qarovchi shaxs oti hosil qiladi (*bog'bon, saroybon, darvozabon*),

Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,

Ul shajari musmiru sen bog'bon.

(26-bob, 17 sahifa)

To bilib oxir ani sultoni mulk,

Xayli duo birla nigahboni mulk,

(28-bob, 21 sahifa)

- ot + furush qolipi asosdan anglashilgan narsa + predmetni sotish bilan shug'ullanuvchn shaxs otini yasaydi (*chitfurush, nosfurush, mevafurush*),

Jur'a uchun jon beribon durdno'sh
Jom tubin kunga qo'yar mayfurush.

(30-bob, 23 sahifa)

- **ot + dosh qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetga bir xil aloqador bo'lgan shaxs oti** (*qayg'udosh, musobaqadosh, suhbatdosh, zamondosh*),

Kimki bo'lur shararing fosh anga,
Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga.

(26-bob, 18 sahifa)

-**ot + vachcha qolipi asosdan anglashilgan shaxsga qarashli farzand ma'nosidagi shaxs oti yasaydi** (*boyvachcha, gadoyvachcha, to'ravachcha, tog'avachcha, xolavachcha, amnavachcha, itvachcha*).

- **ham + ot asosdan anglashilgan narsa-predmetga aloqador shaxs oti hosil qiladi** (*hamshahar, hamsuhbat, hamkurs, hamkasb*);

Menki bu may nash'asidin mast men,
Dayri fano ahlig'a hamdast men.

Ul qila olmasa hamovozliq,
Qilsa ayolg'u bila damsozliq.

(15 bob, 12 sahifa)

Subh safoliq mayidin mast o'lay,
Tong qushiga nolada hamdo'st o'lay

(18-bob, 14 sahifa)

Yo'qki hamin xilvati ahlig'a bas,
Shayxqa ham ushbu xizr hamnafas.

(28-bob, 20 sahifa)

Mone o'lub g'ayrati ogohliq,
Xizrg'a ham qilg'ali hamrohliq.

(28-bob, 21 sahifa)

Yaxshig'a andin g'amu ozor erur,
Bog'da gul hamnafasi xor erur.

(42-bob, 41 sahifa)

- ot + **garchilik** asosdan anglashilgan **belgi, holat, harakat-hodisaga aloqador bo'lgan otni yasaydi** (*oliftagarchilik, namgarchilik, isrofgarchilik*). -
ot + **zor qolipi** asosdan anglashilgan **narsa ko'p bo'ladigan joy oti** (*olmazor, o'rikzor, bodomzor, gulzor, paxtazor, ajriqzor*),

Jilvai avval budur ashjorg'a,
Hayli rayohin bila gulzorg'a,

(54-bob, 56 sahifa)

- ot + **iston qolipi** asosdan anglashilgan **narsa-predmetga boy joy otini bildiradi** (*O'zbekiston, guliston*).

Nazmi savodi aro har doston,
O'ylaki, bir kishvari Hindiston.

(12 bob, 7 sahifa "Hayratul-abror")

Qaysi shabistong'aki ul qildi azm,
Bazmi yerida bu dog'i tuzdi bazm.

(12 bob, 8 sahifa)

Subhi azal qildi chu dehqoni sun,
Odami xokiyni gulistoni sun,

(17 bob, 13 sahifa)

Esti nasimi bu guliston sari,
Sunbulu sarvu gulu rayhon sari.

(17 bob, 13 sahifa)

Kim bu gulistonkim erur bir jahon,
Balki jahone gul ichinda nihon,

Sham bo'yi tuz kelib ayvon aro,
Shohidi bazm o'ldi shabiston aro.

(40-bob, 38 sahifa)

Shabistonda ul sham o'ldi ravshan,
Ki bazmi gullaridin bo'ldi gulshan.

(14-bob, 79 sahifa “Farhod va Shirin”)

Shunday ot yasash qoliplari borki, ulardan bugungi kunda yangi so'z yasalmaydi. Hosilalarning barchasi lisoniy xarakterga ega.

- ot + **goh qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bajarilgan joy oti yasaydi**
(sayilgoh, ayshgoh, manzilgoh)

Ishq o'ti otashgahi joni aning,
G'am tengizi ashki ravoni aning.

(12 bob, 8 sahifa “Hayrat ul-abror”)

Jilvagahi gulshani charxi birin,
Obxo'ri chashmi aynul-yaqin.

(13 bob, 8 sahifa)

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh.

(17-bob, 14 sahifa)

Onchaki sultoni o'lub chishtgoh,
Uyquda sulton bila xaylu sipoh.

(26-bob, 18 sahifa)

Qaysi Eram, ravzai xuldi barin,
Ravza nekim, jilvagahi huri in.

(38-bob, 34 sahifa)

Oh ila olamni qaro aylabon,
Xobgahim na'sh aro aylabon.

(49-bob, 51 sahifa)

Bu nazhatgah mening oromgohim,
Sipehr aylab jabinin xoki rohim.

(9-bob, 74 sahifa “Farhod va Shirin”)

- ot + **don** qolipi **asosdan anglashilgan narsa-predmet saqlanadigan predmetni ifodalovchi ot hosil qiladi** (*qalamdon, tuzdon, kuldon*),

- ot + **xona** qolipi **asosdan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallangan joy oti hosil qiladi** (*ishxona, qabulxona, choyxona, oshxona*),

Masjidu mayxona anga yoqmayin,

Dayr bila ka'ba sori boqmayin,

(28-bob, 21 sahifa)

- ot + **obod** qolipi **asosdan anglashilgan narsa-predmet obod qilingan joy oti yasaydi** (*Dehqonobod, Mehnatobod*).

- ot + **noma** qolipi **asosdan anglashilgan narsa - predmetni ifodalovchi ot yasaydi** (*arznoma, taklifnoma, sayohatnoma*).

Bugungi kunda ham hosila berib turgan qoliplar *unumli so'z yasash* qoliplari deyiladi. Unumli so'z yasash qoliplari hosila berish darajasiga qarab o'z o'rnida ikkiga bo'linadi: *mahsuldor unumli so'z yasash qoliplari* va *kammahsul unumli so'z yasash qoliplari*.

-*gar*, -*kash*, -*mon* vositali qoliplar unumli kammahsul qoliplarga misoldir. -*chi*, -*li*, -*la* vositali qoliplar mahsuldor unumli so'z yasash qoliplaridir. So'z yasovchi vositalar orqali har xil grammatik ma'nolar ifodalanishi mumkin. Masalan, -*kash* yasovchisi hosilasi sifat ham, ham bo'ladi (*mehnatkash* - ot, *dilkash* - sifat). Demak, so'z yasovchi vositalar nafaqat yangi so'z hosil qiladi, balki yangidan-yangi grammatik ma'nolarni ham vujudga keltiradi. Bu mustaqil so'zlarda lug'aviy ma'noning grammatik ma'no bilan dialektik aloqasini, ularning o'zaro yaxlitlikda mavjudligini ko'rsatadi.

Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, tilimizga xos bo'lgan grammatik ma'nolarning deyarli barchasi son, egalik, kelishik, hurmat, shaxsiy munosabat, belgi darajasi, harakat, nisbat, tarz (harakatning sodir usuli), bo'lishli-bo'lishsizlik (tasdiq-inkor), mayl- zamon, shaxs-son affiks - qo'shimchalar yordamida ifodalanadi. O'zbek tilida, asosan, suffikslar, ya'ni o'zak yoki asosdan keyin qo'shiladigan qo'shimchalar ishlatiladi.

Tilimizda eroniy tillardan kirgan bir qator [be-], [bo-], [ser-], [no-], [ba-] kabi prefikslar — oʻzak va asosdan oldin keladigan qoʻshimchalar ham oʻzlashib qolgan.

Ot soʻzlar yasalişidagi singari sifatlar ham affiksatsiya usuli bilan koʻplab yasaladi. Bunda sifat yasovchi vazifasida quyidagi affikslar keladi:

- li: eng sermahsul sifat yasovchi boʻlib, u otlardan koʻplab turli-tuman maʼnolardagi sifatlar yasaydi: diyonatli, doʻppili, maslahatli, uyli, joyli va b.
- dor: yarador, qarzdor, unumdor.
- mand: kasalmand, davlatmand, orzumand.

kor: ehtiyotkor, fidokor. Bulardan tashqari -bon, xush-, ba-, be-, no- kabi affikslar koʻplab sifat soʻzlar yasashda ishtirok etadi.

- **ot + dor qolipi** 1) **asosdan anglashilgan narsa-predmetga egalik belgisini bildiruvchi sifat**; *aloqador, aybdor, manfaatdor*;

2) **asosdan anglashilgan narsaning meʼyordan ortiqqligini bildiruvchi sifat** *mahsuldor, nasldor, toʻshdor*)

- **ser + ot qolipi** **asosdan anglashilgan narsaning meʼyordan ortiqqligini bildiruvchi sifat** (*sersoqol, sersuv, sergoʻsht, sersomon*).

- **be + ot qolipi** **asosdan anglashilgan narsaning yoʻq ekanligini bildiruvchi sifat** (*bemajol, begʻubor, bexush*)

Zodasidin zoda boʻlub beadam,

Zodagʻa ham valid oʻlub, ham valid.

(14 bob, 10 sahifa)

Manga bu bekasliq emas erdi bas,

Kim chiqibon har sari bir hechkas.

(15 bob, 12-sahifa)

Nogoh anga yovusa bir beadam,

Tosh ila oʻqdin anga yetgay taab.

(15 bob, 13 sahifa)

Soldi dimogʻigʻa bu xomushluq,

Oh buxori bila behushluq.

(18-bob, 16 sahifa)

Kim ne kishikim, sanga mahkum erur,
Zulmunga bechorau mazlum erur.

(26-bob, 17 sahifa)

Necha bu behudluq ila yilu oy,
Voy, agar kelmasang o'zungga, voy !

(26-bob, 19 sahifa)

Kimniki bedoding etibdur asir,
Bo'l anga adl ilgi bila dastgir.

(28-bob, 19 sahifa)

Holda as'hob dog'i pirdek,
Bemazaliqda borisi birdek.

(28-bob, 20 sahifa)

Balki bu nobud xayolot anga,
Qaysi xayolotki, zarrot anga.

(28-bob, 21 sahifa)

Yerda bu iqlim erur dilpazir,
Ko'kda quyosh toramidek benazir.

(58-bob, 62 sahifa)

- **ba + ot qolipi asosdan anglashilgan narsaning me'yordan ortiqqligini bildiruvchi sifat yasaydi** (*basavlat, baquvvat, sersavlat*).

- **no + ot qolipi 1) asosdan anglashilgan narsaga ega emaslikni bildiruvchi sifat yasaydi M:** *noumid, noinsof, noo'rin*;

Bo'lsa o'tu suvu havo dilpazir,
Ul aro tufroq ham erur noguzir.

(13 – bob 8- sahifa)

Xalqni oldingda qilib notavon,
Barchasig'a ayladi hukmung ravon.

(26-bob, 17 sahifa)

Balki bu nobud xayolot anga,
Qaysi xayolotki, zarrot anga.

(28-bob, 21 sahifa)

Yetgach aning boshi uza nogahon
Far eta uchsa edi ul notavon,

(41-bob, 40 sahifa)

Dahrki, hush ahlig'a zindon erur,
Bo'lg'on anga shefta nodon erur.

(56-bob, 59 sahifa)

Shah boqib ko'rdi chu noshod ani,
Lutf etibon ayladi ozod ani.

2) asosdan anglashilgan belgiga qarama-qarshi belgini bildiruvchi sifat ham hosil qilinadi: nomard, noma'lum, nomunosib.

Katmi adam gulshani ichra nuhuft
G'unchalar erdi borisi noshuguft,

(14 bob, 10- sahifa)

So'z aro yolg'on kibi yo'q nopisand,
Aylar aning nazmini dono pisand.

(14 bob, 11 sahifa)

-sifat + namo qolipi biror shaxsning asos bildirgan xarakter-xususiyat belgisiga ega ekanligini bildiruvchi sifat yasaydi (*darvishnamo, avliyonomo, majpunnamo*).

- namo affiksi yordami bilan taqlid, o'xshatish ma'nosidagi ravishlar yasaladi: oliftanamo, hazilnamo, olimnamo kabi.

- **ot + parvar qolipi asosdan anglashilgan narsani sevishni bildiruvchi sifatni bildiradi (*xalqparvar, insonparvar, vatanparvar*).**

- mand: kasalmand, davlatmand, orzumand.

Forsi el topti chu xursandliq,
Turk dog'i topsa barumandliq.

Toj boshingdin bo'lubon sarbaland,

Taxt ayog'ingdin o'lub arjumand.

(26-bob, 16 sahifa)

Faqr qanoatdin o'lub sarbaland,

Vajd ila holatdin o'lub bahramand.

(28-bob, 21 sahifa)

Ko'rib o'tilganlardan tashqari -aki (*daxanaki*, *zo'raki*), bad-(*badahloq*, *badxazm*, *badbashara*), -shumul (*olamshumul*, *jahonshumul*). -chil (*dardchil*, *izchil*), -kay (*kungay*, *terskay*), -don (*gapdon*, *bilimdon*), -kash (*dilkash*, *hazilkash*). -m (*qaram*), -lom (*sog'lom*), -qa (*qisqa*) -bop (*qishbop*, *palov6op*), xush-(*xushbichim*, *xushhavo*) affiksli qoliplar asosida ham sifatlar yasalgan. Bu affiksli qoliplar unumsiz bo'lganligi uchun ularning umumiy tomonini mavjud hosilalaridan umumlashtirib chiqarib bo'lmaydi.

Ifoda jihatining teng kelib qolishi natijasida voqe bo'lgan omonimiya:

o'zbekcha leksema bilan o'zlashma leksema orasida bo'ladi:

a) o'zbekcha leksema bilan fors-tojikcha leksema orasida: *yor- I* ('ikkiga ajrat-') - *yor- II* ('mahbuba'); *bog'- I* (*bir bog' piyoz*) – *bog'- II* ('meva- zor') kabi;

b) o'zbekcha leksema bilan arabcha leksema orasida: *sir- I* (bo'yoqning nomi) - *sir- II* ('maxfiy ish, gap, narsa'); *sana- I* ('donalab hisobla-') - *sana- II* ('muhim voqea ta'kidlanadigan yil, oy, kun') kabi;

) o'zlashma leksemalar orasida bo'ladi:

a) fors-tojikcha leksemalar orasida: *soz- I* (muzika asbobining nomi) - *soz- II* ('yaxshi'), *bod- I* ('shamol') - *bod- II* ('shish') kabi;

b) arabcha leksemalar orasida: *safar- I* ('sayohat') - *safar- II* ('gal', 'marta'), *rasm- I* ('suvrat') - *rasm- II* ('urf-odat') kabi;

v) arabcha leksema bilan fors-tojikcha leksema orasida: *karam- I* ('mehr-shafqat') - *karam- II* (sabzavotning nomi) kabi.

Omonimiya ba'zan salbiy hodisa deb baholanadi. Aytishlaricha, omonimiya fikrni to'g'ri va tez anglashga xalaqit beradi. Shu jihatdan til uchun ortiqcha yuk deb qaraladi. Bu fikrga qo'shilish qiyin. Chunki omonimning yolg'iz o'zi bilan gapshakl tuzib, fikr anglatish kamdan kam uchraydi. Matn esa odatda omonimiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etadi.

Nutqda ikki xil tushunilishi mumkin bo'lgan holatlarga ba'zan ongli ra-vishda yo'l qo'yiladi, shu asosda so'z o'yini hosil qilinadi. Buni omonimiya-dan qisman bo'lsa-da ijobiy foydalanish deb baholash kerak. Ikkinchidan, omonimiyadan maxsus poetik janr – tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. Ma'lumki, tuyuq xalq og'zaki ijodiyotida ham, yozma badiiy adabiyotimiz tarixida ham alohida o'rin egallagan.

Askiyada omonimiyadan ustalik bilan foydalaniladi.

Umuman, omonimiyaning voqe bo'lishi tilning o'z xususiyati bilan izohlanadi: Har bir tilda tovushlar soni sanoqli, shu tilda ishlatiladigan tovush kombinatsiyalari ham cheksiz emas. Ikkinchidan, leksemalarning ifoda jihatida ham, ma'no jihatida ham uzluksiz o'zgarishlar bo'lib turishi bilan omonimiyaning paydo bo'lishi tabiiy hodisa deb qaralishi lozim.

Nominativ ma'nosi so'ngan leksemalar asosan eskirgan leksemalarga, shuningdek boshqa leksemalar bilan ma'no munosabatini, yasaliş jihatidan bog'lanishini yo'qotgan leksemalarga to'g'ri keladi: *basir-* (arabcha, ma'nosi - 'ko'ruvchi': *Basir bo'lgur* – ayollarning "teskari" qarg'ishlaridan), *baxsh-* (fors-tojikcha, ma'nosi - 'atash': *baxsh et-*), *bahr-* yoki *bahra-* (arabcha, ma'nosi - 'hissa', 'nasiba', 'foyda': *bahra ol-*), *ado-* (fors-tojikcha, ma'nosi - 'o'tash', 'bajarish': *ado et-*), *yit-* (*yo'qolib-yitib ket-*), *sun-* (*bo'ysun-* < *bo'yin sun-*) kabi.

Sinonimik munosabat:

1) bir tilning o'z leksemalari orasida bo'ladi. Bu – har bir tilning o'z ichki taraqqiyoti bilan yuzaga keladigan holat. Masalan, *gapir-*, *so'zla-*; *yanch-*, *tuy-* kabi sinonimlar o'zbek tilining o'z imkoniyati asosida yuzaga kelgan;

2) o'z leksema bilan o'lashma leksema orasida bo'ladi. Masalan, *oz-*, *kam-*; *barcha-*, *hamma-*; *toza-*, *pok-*; *yolg'on-*, *soxta-* (o'zbekcha – fors-tojikcha); *ayirma-*, *farq-*, *tafovut-*; *bo'lak-*, *qism-*; *kishi-*, *inson-*, *odam-*; *uyushma-*, *ittifoq-* (o'zbekcha – arabcha) kabi;

3) o'zlashma leksemalar orasida ham voqe bo'ladi. Masalan, *analiz-*, *tahlil-* (yunoncha – arabcha), *maktub-*, *noma-* (arabcha – fors-tojikcha); *rasm-*, *odat-* (arabcha – arabcha) kabi.

Demak, sinonimik munosabat avvalo o'zbek tili lug'at boyligidagi o'z qatlam leksemalari orasida voqe bo'ladi. Shu bilan birga, boshqa tildan leksema o'zlashtirish oqibatida ham sinonimik munosabat yuzaga kelishi mumkin.

Affikslarning shaklan har xil, umumiy ma'nosi bir xil bo'lish hodisasi affiksial sinonimiyadir. Affiksial sinonimiya asosan, bir so'z turkumi doirasida yuz beradi. Ayni choqda, u vazifasi bir xil affikslar doirasida, ya'ni so'z yasovchilararo, forma yasovchilararo yuz beradi: o'rin-siz va no-o'rin, g'ayrat-li va ser-g'ayrat (so'z yasovchilararo) ; o'zgar-t va o'zgar-tir kabi (forma yasovchilararo).

Sinonimik affikslarning turli asoslarga qo'shilib, yangi so'zlar yasash darajasi ma'no ottenkalariga ko'ra ham, qo'llanish doirasining keng - torligiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, mahsuldor sanalgan shaxs oti yasovchi -chi affiksi bilan shunday ma'noli shaxs oti yasovchi -shunos qo'shimchasini qiyoslaganimizda bu yaqqol ko'zga tashlanadi: adabiyotchi - adabiyotshunos, tilchi - tilshunos tarzida qo'llansa-da, lekin xizmatchi, bo'yoqchi so'zlarini "xizmatshunos", "bo'yoqshunos" deb, sharqshunos,

tuproqshunos so'zlarini "sharqchi", "tuproqchi" deb ham qo'llab bo'lmaydi.

Affiksial antonimiya. Qarama-qarshi ma'no anglatuvchi affikslar affiksial

antonimiyani keltirib chiqaradi. Tilimizda affiksial antonimiya, asosan, so'z

yasovchi affikslar doirasida uchraydi: -li - siz: aqlli-aqlsiz; -li - be-: sabrli - besabr; be- ba-: bedavlat - badavlat. Keltirilgan affiksal juftliklar har doim ham, barcha holatlarda antonim bo'lib kelavermaydi. M: boshli - bebosh deb ishlatmaymiz.

XULOSA

Fors-tojik tilining ta'siri natijasida o'zbek tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishida ham ayrim o'zgarishlar yuzaga keldi. Bularning muhimlaridan biri sifatida bevosita fors-tojik tilining ta'siri ostida yetakchi shahar shevalarida turkiy til fonologik tizimiga xos bo'lmagan tovushlarning paydo bo'lishini ko'rsatish mumkin. Chetdan kirib qolgan bu qo'shimcha omil ta'sirida til oldi unlilarining konvergentsiyasi yuzaga keldi. Buning natijasida Toshkent tipidagi shahar shevalarining vokalizmi fors-tojik tili unlilariga yaqinlashib bordi, Samarqand- Buxoro shevalarining unlilari tarkibi esa ilgari fors-tojik tili vokalizmiga yaqin edi. Bu hodisa o'zbek tilida singarmonizmning qisqarishiga, shahar shevalarida esa asta-sekin kuchsizlanib yo'qola borishiga olib keldi.

(V.V Reshetov. Uzbekiskiy yazik. Tashkent, 1959, 37-38- betlar.)

Fors -tojik tilidan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida bo'lgan bir qator yasovchi vositalar (-zor, -don, -iston, -ham, -no, -be-) keyinchalik o'zbek tilida ham yangi so'zlar yasashga xizmat qiluvchi affiks bo'lib qoladi: **olmazor**, **tuzdon**, **kuldon**, **hamqishloq**, **noo'rin**, **beomon** kabi yasovchi affikslar bilan birga mustaqil so'z negizlaridan hosil bo'lgan yasovchi elemenlar –affiksoidlar ham qabul qilinadi (-shunos, -xo'r, -do'z, -kash, -xon, -xona, -noma, -parvar kabi), tilshunos tuproqshunos, oshxo'r, qonxo'r, etikdo'z, ishxona, chizmakash singari.

O'zbek tili ham, o'z navbatida, fors-tojik tilining rivojlanishiga, uning leksikasiga va ayniqsa grammatikasiga ma'lum darajada ta'sir qilgan o'zbek tilidan juda ko'p so'zlar iboralar lug'aviy birliklardan tashqari, bir qator so'z yasovchi va shakl yasovchi affikslar (-chi, -cha, dosh, siz, lik kabi) ham fors-tojik tiliga ham qabul qilingan.

O'zbek va fors-tojik tillarining o'zaro bir-biriga ta'siri bizning davrimizgacha davom etdi, yana ham mustahkamlanib bordi. Buning natijasida ikki tilchilik hodisasi yuzaga keldi, shiru-shakar usulida yozilgan asarlar paydo bo'ldi.

Bunday so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashtirilishida quyidagi omillarning alohida roli bor:

a) o'zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo'shni) territoriyada, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy muhitda yashab kelayotganligi;

b) o'zbek-tojik va tojik-o'zbek ikki tilliligidining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;

v) tojik va fors tillarida ijod qilish an'alarining uzoq yillar davom etganligi;

g) Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo'lganligi;

d) adabiyot, san'at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va boshqalar.

Fors-tojik tillaridan o'zbek tiliga bir qator prefiks va suffikslar ham o'zlashgan: prefikslar –“be-”, “ba-”, “no-”, “ham-”, “bar-“, “kam-”, “xush-“; suffikslar “-kor”, “-zor”, “-xo'r”, “-parvar”, “-kash”, “-bop”, “-boz”, “-do'z”, “-namo”, “-paz”, “-furush” va boshqalar. Ular dastlab tojik-fors so'zlari tarkibida qo'llangan, keyinchalik o'zbek tilining so'z yasovchi affikslari qatoridan o'rin olib, yangi so'zlarning yasashida ishtirok etgan, shu yo'l bilan o'zbek tili leksikasini yanada boyitgan. Bulardan tashqari, tojik tilidan o'zlashgan *xona*, *noma* so'zlari o'zbek tilida affiksoid vazifasida qo'llanib, *yilnoma*, *oynoma*, *ishxona*, *bosmaxona* kabi so'zlarning yasashida ishtirok etgan.

Ot yasovchi qoliplarning aksariyati ko'p ma'noli qoliplardir. Quyida ularni ko'rib o'tamiz.

- shunos: tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunos.
- kor: g'allakor, paxtakor, sholikor.
- kash: aravakash, pillakash, suratkash.
- xon: kitobxon, jurnalxon, duoxon kabi.
- do'z: etikdo'z, mahsido'z kabi.
- gar: zargar, savdogar kabi.
- dosh: sinfdosh, sifatdosh, ohangdosh kabi bu affiks fe'ldan boshqa deyarli barcha so'z turkumlaridan ot yasaydi

Tilimizda fors-tojik tilidan kirib kelgan anchagina o'rin-joy, predmet oti yasaydigan affikslar ham borki, ular tilda aktiv qo'llaniladi:

- iston: O'zbekiston, Guliston, qabriston.
- zor: paxtazor, lolazor kabi.
- goh: saylgoh, oromgoh kabi.
- don: kuldon, siyohdon kabi.
- xona: ishxona, choyxona kabi.

-*shunos* affiksli (**ot + shunos qolipi asosdan anglashilgan sohani o'rganuvchi mutaxassis oti**) qolipi bir ma'noli bo'lib, u quyidagi hosilalarni beradi: *adabiyotshunos, tilshunos, tarixshunos, o'lkashunos, musiqashunos* kabi.

Ko'z och, agar xud bor esang rahshunos,

Ish ravishin ayla aningdek qiyos, (26-bob, 17 sahifa)

-*kor* affiksli ikkita qolip mavjud: a) **aniq ot + kor qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs oti** (*paxtakor, lavlagikor, sholikor, g'allakor*) va b) **mavhum ot + kor qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs oti** yasaydi (*madadkor, xiyonatkor, gunohkor, tajovuzkor, tashabbuskor, ijodkor, xizmatkor*).

Charx to'quz durjiki zarkor erur,

Javfida yuz ming duri shahvor erur. (36-bob, 31 sahifa)

-*kash* affiksli qolip ham ikki manolidir: a) **ot + kash qolipi a) asosdan anglashilgan ish, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti; b) asosdan anglashilgan ishni bajarish odati kuchli bo'lgan shaxs oti; a) zambilkash, kirakash, loyakash, paxsakash**

Hotami Toyig'a bir ozodavash

Dediki: „ Ey himmating ozodakash, (31-bob, 25 sahifa)

b) *J'anjalkash, hazilkash.*

Sarvlari sarkashu zangorgun,

Har biri ko'k borgahig'a sutun.

Garchi bo'lur qalb diram ro'yakash,

Andin ayirmoq bo'lur o't birla g'ash. (28-bob, 21 sahifa)

- **ot + xon qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmetni doimiy mutolaa qiluvchi shaxs oti** (*gazetxon, kitobxon, jurnalxon, duoxon*),
- **ot + do'z qolipi asosdan anglashilgan narsa -predmetni tikuvchi shaxs otini bildiradi** (*etikdo'z, maxsido'z, mo'ynado'z, do'ppido'z*),
- **ot + gar qolipi asosdan anglashilgan narsa -predmet bilan bog'liq kasbni qiluvchi shaxs oti yasaydi** (*zargar, sovungar, savdogar*),

Zahr ila yoshil bo'lubon paykari,

Bulbul aning boshida afsungari. (18-bob, 15 sahifa)

- **ot + soz qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetni yaratuvchi, tuzatuvchi shaxs oti hosil qiladi** (*soatsoz, stanoksoz, asbobsoz*)

Goh visol ichra bo'lub ayshsoz,

Goh firoq o'tig'a aylab gudoz, (17-bob, 14 sahifa)

- **ot + paz qolipi asosdan anglashilgan taomni tayyorlovchi shaxs oti yasaydi** (*oshpaz, somsapaz, mantitaz, kabobpaz*).

- **ot + boz qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan ko'p shug'ullanuvchi, unga berilgan shaxs otini yasaydi** (*majlisboz, arizaboz, maishatboz, safsataboz, va'daboz, guruhboz, kaptarboz, bedanaboz*).

Charx urubon rev ila nayrangsoz,

O'ylaki ko'k xirqa bila tosboz. (48-bob, 47 sahifa)

- **ot + xo'r qolipi asosdan anglashilgan yegulik, ichimlikni doimiy iste'mol qiluvchi shaxs oti hosil qiladi** (*mayxo'r, araqxo'r, nafaqaxo'r, choyxo'r*).
- **ot + parast qolipi asosdan anglashilgan narsaga e'tiqod qiluvchi shaxs oti yasaydi** (*butparast, mayparast, shaxsiyatparast, maishatparast*),
- **ot+tarosh qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi ot yasaydi.**

Subha dema, butki yo'nib buttarosh,

Dona yasab, harne qolib reza tosh. (28-bob, 19 sahifa)

- **ot + go'y qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat, hodisani doim bajarib turadigan shaxs otini yasaydi** (*maslahatgo'y, duogo'y, nasihat -go'y*).

- ot + dor qolipi **asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo'lgan shaxs oti yasaydi** (*bog'dor, quldor, do'kondor*),

Ne chrkkay ko'kka boshin tojdori,

Yo'q ersa bir dur andin yodgori. (12-bob, 77 sahifa“Farhod va Shirin“)

- ot + bon qolipi **asosdan anglashilgan narsa - predmetga qarovchi shaxs oti hosil qiladi** (*bog'bon, saroybon, darvozabon*),

Bo'ldi raiyat galavu sen shubon,

Ul shajari musmiru sen bog'bon. (26-bob, 17 sahifa)

- ot + furush qolipi **asosdan anglashilgan narsa + predmetni sotish bilan shug'ullanuvchn shaxs otini yasaydi** (*chitfurush, nosfurush*).

- ot + dosh qolipi **asosdan anglashilgan narsa - predmetga bir xil aloqador bo'lgan shaxs oti** (*qayg'udosh, suhbatdosh, zamondosh*),

Kimki bo'lur shararing fosh anga,

Do'zax o'ti bo'lg'usi podosh anga. (26-bob, 18 sahifa)

-ot + vachcha qolipi **asosdan anglashilgan shaxsga qarashli farzand ma'nosidagi shaxs oti yasaydi** (*boyvachcha, gadoyvachcha, to'ravachcha, tog'avachcha, xolavachcha, amnavachcha, itvachcha*).

- ham + ot **asosdan anglashilgan narsa-predmetga aloqador shaxs oti hosil qiladi** (*hamshahar, hamsuhbat, hamkurs, hamkasb*);

Menki bu may nash'asidin mast men,

Dayri fano ahlig'a hamdast men.

- ot + garchilik **asosdan anglashilgan belgi, holat, harakat-hodisaga aloqador bo'lgan otni yasaydi** (*oliftagarchilik, namgarchilik, isrofgarchilik*). -

ot + zor qolipi **asosdan anglashilgan narsa ko'p bo'ladigan joy oti** (*olmazor, o'rikzor, bodomzor, gulzor, paxtazor, ajriqzor*),

Jilvai avval budur ashjorg'a,

Hayli rayohin bila gulzorg'a, (54-bob, 56 sahifa)

- ot + iston qolipi **asosdan anglashilgan narsa-predmetga boy joy otini bildiradi** (*O'zbekiston, guliston*).

Nazmi savodi aro har doston,

O'ylaki, bir kishvari Hindiston. (12 bob, 7 sahifa "Hayratul-abror")

Shunday ot yasash qoliplari borki, ulardan bugungi kunda yangi so'z yasalmaydi. Hosilalarning barchasi lisoniy xarakterga ega.

- ot + **goh qolipi asosdan anglashilgan ish-harakat bajarilgan joy oti yasaydi** (*sayilgoh, ayshgoh, manzilgoh*)

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,

Ul biri xoliqqa erur jilvagoh. (17-bob, 14 sahifa)

- ot + **don qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmet saqlanadigan predmetni ifodalovchi ot hosil qiladi** (*qalamdon, tuzdon, kuldon*),

- ot + **xona qolipi asosdan anglashilgan ish-harakatga mo'ljallangan joy oti hosil qiladi** (*ishxona, qabulxona, choyxona, oshxona*),

Masjidu mayxona anga yoqmayin,

Dayr bila ka'ba sori boqmayin. (28-bob, 21 sahifa)

- ot + **obod qolipi asosdan anglashilgan narsa-predmet obod qilingan joy oti yasaydi** (*Dehqonobod, Mehnatobod*).

- ot + **noma qolipi asosdan anglashilgan narsa - predmetni ifodalovchi ot yasaydi** (*arznoma, taklifnoma, sayohatnoma*).

Bugungi kunda ham hosila berib turgan qoliplar *unumli so'z yasash* qoliplari deyiladi. Unumli so'z yasash qoliplari hosila berish darajasiga qarab o'z o'rnida ikkiga bo'linadi: *mahsuldor unumli so'z yasash qoliplari* va *kammahsul unumli so'z yasash qoliplari*. -gar, -kash, -mon vositali qoliplar unumli kammahsul qoliplarga misoldir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumxalq tilining taraqqiy etishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan o'zaro aloqalarining kengayishi bilan bog'liq holda davom etadi. Ma'lum tilda boshqa chet til usullarining kirib, o'zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008, 63 -bet.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, O'zbekiston, 2000, 350 bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. –137-bet
4. Karimov I.A.O'zbekiston buyuk kelajak sari.Toshkent,O'zbekiston, 1999, 82 bet.
5. 1.Hozirgi o'zbek adabiy tili.-Toshkent: O'qituvchi, 1980.-B 120, 251.2.
6. 2.N. Ibrohimov, M. Yusupov. Arab tili grammatikasi, 1-jild. – Toshkent: 1997.
7. Grande. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskim osveshenii. 2-izdaniye Moskva. Izdatelskaya firma “Vostochnaya literature ” PAH 2001. str. 286-287
8. Alisher Navoiy “Xamsa” asari. –Tashkent, 2002.
9. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent. Fan. 1985. 199 bet.
- 10.Jamolxonov. N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2004, 1 – qism.
- 11.Tursunov U. , Muxtorov J., Rahmatullayeva 111. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent 1975, 367 bet.
- 12.Tursunova T. O'zbek tili amaliy san'ati leksikasi. Toshkent 1978.
- 13.To'ychiboyev B. O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari.-T.: «O'qituvchi», 1996, 7-b
- 14.To'ychiboyev B, Shirinov S,Qashqirli Q.”Tuganmas boyliklar bulog'i”. – Toshkent,”O'qituvchi”, 1991 yil.
- 15.To'ychiboyev B, Shirinov S,Qashqirli Q. ”O'quvchi nutqi va xalq tili” T, RUMS, 1992.
- 16.Faxri Kamol. Hozirgi zamon o'zbek tili. Toshkent, 1953.
- 17.Mamatov N. O'zbek tilida qo'shma so'zlar. Toshkent, 1982. Mirzayev I. Abdulla Qodiriy. - T. Fan, 1975;
- 18.Muhammadjonova G. O'zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba'zi masalalari. Toshkent.
- 19.Pinxasov Ya. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. Toshkent, 1960,167 bet.
- 20.G'ulomov AQ. O'zbek tilida so'z yasash yo'llari haqida. Til va adabiyoti instituti asarlari. O'zbek tili grammatikasidan materiallar. 1 kitob. T 1949.